

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

« ____ » _____ 2013 yil

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Pedagogika-psixologiya fakulteti

dekani _____ dots. B. Jo‘rayev

« ____ » _____ 2013 yil

**5141000-musiqiy ta‘lim yo‘nalishi pedagogika-psixologiya fakulteti
IV kurs 406- guruh talabasi Qulmurodova Gulnoza Ilashevnaning
«O‘zbekistonda XX-asrning 80-90 yillarida zamonaviy bolalar
musiqasi » mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ p.f.n.dots. M. Ismoilova

« ____ » _____ 2013 yil

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Musiqqa kafedrasi mudiri

_____ kat. o‘q. R. Primov

« ____ » _____ 2013 yil

QARSHI -2013 YIL

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. BOB. O'zbekistonda bolalar musiqa tarbiyasining tarixiy va nazariy asoslari..	
I.1.O'zbekistonda bolalar musiqasining rivojlanish tarixi.....	10
I. 2. XX-asrning 80-90 yillarida bolalar musiqasida yangi janrlarning paydo bo'lishi.....	20
II. Maktabda zamonaviy bolalar qo'shiqlarini o'rganish.	
II.1. O'zbekiston kompozitorlarining bolalar va o'smirlar uchun musiqiy ta'lim va tarbiyaga qo'shgan hissasi.	28
II.2. 5-7 sinfl o'quvchilarida zamonaviy bolalar qo'shiqlarini o'rgatish usullari.....	37
II.3. Tajriba – sinov natijalari aniqlash	43
Xulosa	50
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	52
Ilovalar.....	54

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Yosh avlodni yuksak madaniyatli estetik didi yuqori darajada rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashda musiqa ta'limining ahamiyati beqiyosdir. Xususan o'zbek musiqa san'ati bu borada katta imkoniyatlarga ega. dir. Prezidentimiz I.A Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida navqiron avlod tarbiyasi haqida gapirar ekan " Eng muhimi bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq tasir ko'rsatmoqda" - deya ta'kidlaydilar xizmat qiladi"1.

Kelajagimiz bo'lgan bugungi kun o'quvchilarining badiiy va estetik tarbiyalashning takomillashitirish umum ta'lim maktablari, akademik litsey va kolledjlar oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan iborat etilganligi "Ta'lim to'g'risidagi Qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarida ham ifodalanganligining guvohidirmiz.

Bu borada Respublikamizda qilinayotgan qator ishlar zaminida bolalarni chin inson qilib tarbiyalash masalasi yotadi.

O'quvchilarning musiqa san'atiga qo'shiq kuylash orqali olib kirish, musiqiy estetik tarbiyasining yangi yo'llarini izlash, uni nazariy jihatdan asoslab berish, musiqiy pedagogikaning doimo diqqat markazida bo'lgan muammolaridir.

Qo'shiq kuylash har – bir bola uchun estetik hissiyotlar, kayfiyatlar va badiiy ehtiyojlarini ifodalashning oddiy va tabiiy yo'lidir. Qo'shimcha estetik tarbiyaniy 2 ta ta'sirchan vositasi badiiy matn va musiqa birlashadi.

Qo'shiqning ifodasi, ijrosi bolalarning hissiy ta'sirchanligini o'stirib, musiqiy obrazlarni yanada chuqurroq tushunishlariga, ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishda yordam beradi. Qo'shiq kuylash tufayli bolalarda metodik garmonik, eshituv musiqiy xotira, matnining badiiy mazmunini tushunish kabi qobiliyatlari rivoj topadi, kuylash apparati mustahkamlanadi. Qon aylanish yaxshilanadi.

Bolalar qo'shiqchiligi nafaqat mahsus pedagogikaning tadqiqot predmeti, balki estetika, metodika, psixologiya, fiziologiya, san'atshunoslik sohalari ham qo'shiqchilikning ko'pgina jihatlarining tadqiqi bilan shug'ullanadi.

Hozirgi davrda bolalar vokal tarbiyasi asosan umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarida zamoaviy (xor) aytish faoliyati sinfdan tashqari xor, maqom, falklor ansamllari shu asosida olib boriladi. Pedagogik amaliyot o'tish jarayonida biz bolalar qo'shiqchiligining zamonaviy holati, ish tamoyillari, shakllari, usullari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldik. O'quvchilarda ayniqsa, o'smirlikka qadam qo'ygan

bolalarda musiqa madaniyatini tarkib toptirish, ularning aqliy va ahloqiy, jismoniy rivojiga ijobiy ta'mir etishida qo'shiqlarning ifo dali kuylashning pedagogik amaliy ahamiyatini kasb etishini chuqurroq his etdik.

Shuni hisobga olgan holda, biz malakaviy ishimizni mavzusini "O'zbekistonda XXasrning 80-90 yillarida zamonaviy bolalar musiqasi" deb belgiladik.

Bitiruv ishining maqsadi 5-7 sinf o'quvchilarini musiqa darslarida, nazariy va amaliy holatini kuzatish, ularda zamonaviy bolalar qo'shiqlarini kuylash malakalarining shakllanganligi darajasini aniqlash. 5-7 sinf musiqa madaniyati dasturi mazmunida ko'rsatilgan zamonaviy qo'shiqlar repertuarini bolalarga o'rgatishda eng muqobil – ilmiy-amaliy ish usullarini va metodlarini belgilashdir.

Bitiruv ishi vazifalari mavzusining dolzarbligi va maqsadidan kelib chiqib quyidagicha belgilandi:

Mavzu bo'yicha yozilgan psixologik-pedagogik, musiqashunoslik, pedagogik adabiyot manbaalari bilan tanishish.

Uslubiyotchi o'qituvchilar va ilg'or tajribali o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish bo'yicha kuzatuv ishlarini olib borish.

Ilmiy ish yuzasidan tajriba-sinov ishlarini olib borish va uning yakuniy natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

O'quvchilarga zamonaviy bolalar qo'shiqlarini ifodali kuylatish sirlarini o'rgatishning eng yangi shakl va usullarini ishlab chiqish.

Materiallarni bitiruv ishi holiga keltirish va himoyaga tavsiya qilish.

Bitiruv ishining obyekti umuta'lim maktablarining 5-7- sinf o'quvchilarining musiqa darslari jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotimiz predmeti: Musiqa madaniyati darslaridazamonaviy bolalar qo'shiqlarini kuylashga bo'lgan musiqiy ehtiyojini qondirish.

Tadqiqot jarayonida shunday **ilmiy faraz** olg'a surildiki, musiqa madaniyati ta'limi jarayonini o'quvchilarga zamonaviy bolalar qo'shiqlarini kuylatishni yangi ta'lim mazmuni asosida tashkil etishni quyidagi metodlar orqali amalga oshirishimiz mumkin, agar;

-O'quvchilarni har-bir zamonaviy bolalar qo'shiqlarini notalari bilan qo'shiq kuylash qoidalariga rioya qilgan holda kuylatilsa.

-O'quvchilardagi qo'shiqlarni kuylatishni cholg'u asbobi jo'rchiligida amalga oshirilsa.

-Tanlangan bolalar estrada qo'shiqlarini o'quvchilar tomonidan erkin o'qish va ifodali kuylashlarida yetarli bilim va malaka bo'lsa.

- Dars jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalarasosida tashkil qilinsa.

Tadqiqotning metodologik asosini mutafakkirlarimizning musiqa fanini o'qitishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati:

Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", musiqa ta'limini yangi dastur asosida tashkil qilish to'g'risida xalq ta'limi va musiqaviy estetik tarbiya sohasida chiqargan farmonlari va hujjatlari tashkil etadi.

Ilmiy ishni olib borishda quyidagi **metodlardan** foydalanildi: muammoning turli jihatlariga taalluqli adbiyotlarni tahlil qilish, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni zamonaviy bolalar qo'shiqlarini o'rganish samaradorligini oshirish borasida pedagogic tajribalarini o'rganish va umumlashtirish, tajriba – sinov ishlarini olib borish, muammoga tegishli reja, dastur va o'quv qo'llanmalarni tahlil qilish o'quvchilar o'rtasida savol-javob, anketalar o'tkazish, yangi pedagogik texnologiyalar ("klaster", "pedagogik o'yin", "muammoli vaziyat", "aqliy xujum") ni qo'llash, olingan natijalarni son va sifat jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqotning tajriba sinovlarini o'tkazish uchun Qarshi shahridagi 1-son ixtisoslashgan umumiy o'rta ta'lim maktabi tayanch qilib olindi. Tajriba sinovda 5-7 sinflardan 130 dan ortiq o'quvchilar qatnashdilar.

Birinchi bosqich. 5.12.2012 yil. Tadqiqotning mavzusi, muammoning hozirgi kundagi ahvoli, predmeti, vazifalari, farazi va uni o'tkazishning uslubiyoti aniqlandi, yetarli asoslar va dalillar yig'ildi. Adabiyotlar, dasturlar, qo'llanmalar, 5-7 sinf musiqa o'qituvchilarini darslari kuzatildi. Musiqiy – pedagogik faoliyatga tayyorlashda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy tarkibiy qismlar tanlab olindi va unga tayyorgarlik darajasini ko'rsatkichlari ishlab chiqildi; musiqiy mashg'ulotlar mazmunini tashkil qiluvchi kuylash va tinglash uchun berilgan musiqa asarlari bilan tanishildi va ro'yhatga kiritildi.

Ikkinchi bosqich. 15.01.2013 yil. Bu bosqichda o'quvchilarni zamonaviy qo'shiqlarni o'rgatishda ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar mohiyati yangi dastur asosida o'rganildi va o'quvchilarning yosh hususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqildi. O'quvchilarning qo'shiq o'rganish faolligini oshirishda dars jarayonida amalga oshirilgan nota orqali kuylash, o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirilayotganligini tekshirib ko'rish uchun kirishildi.

Tabiiy tajriba – sinov mo'ljallangan va ishlab chiqilgan ba'zi – bir vosita, uslublar dars jarayonida foydalanish imkonini berdi.

Tadqiqotimizning ilmiy farazi tajriba – sinov o‘tkazish jarayonida tekshirilib, o‘quvchilarni zamonaviy qo‘shiqlarni o‘rganish faolligini oshirish, mazmuniga kerakli tavsilotlar kiritildi va samarali shakllantirishning qulay yo‘llari aniqlanib berildi.

Uchinchi bosqich. 20.04.2013 yil. Tadqiqot natijalari tahlil qilindi. Bir tizimga solindi va umumlashtirildi, umumiy xulosalar chiqarildi, ilmiy-amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati shu bilan aniqlandiki, maktabda musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarni kuylash faolligini oshirishda zamonaviy bolalar qo‘shiqlaridan kengroq foydalanish zarurligi isbot qilindi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, undagi nazariy xulosalar ta’lim jarayonida o‘quvchilarni zamonaviy qo‘shiqlarni kuylashida o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Muammoga tegishli zamonaviy bolalar qo‘shiqlarini nota ishlanmalarini, uslubiy ko‘rsatmalarini 5-7 sinf musiqa madaniyati darslarida va talabalarning musiqiy – pedagogik amaliyotida qo‘llash mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tasdig‘i va qo‘llanishi: Bitiruv malakaviy ishning mavzui pedagogika-psixologiya fakulteti musiqa kafedrasining 2012-yil 25- sentabrdagi yig‘ilishida tasdiqlandi. Tasdiqot xulosalari va natijalarini umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-7 sinf musiqa madaniyati darslarida qo‘shimcha manbaa sifatida qo‘llash mumkin.

Himoyaga bitiruv malakaviy tadqiqotini quyidagi holatlari olib chiqildi:

Musiqa darslarida o‘quvchilarni kuylash faoliyatini oshirish jarayonini o‘z ichiga ola bilishi, hissiy, axborot, tinglash, kuylash kabi tarkibiy qismlarini oladi.

-o‘quvchilarning zamonaviy bolalar qo‘shiqlarini ifodali kuylashi, ularning , nazariy va amaliy tayyorgarligida namoyon bo‘ladi.

-o‘quvchilarning zamonaviy qo‘shiqlarni kuylash faolligini rivojlantirish bir qancha pedagogik omillar va shart-sharoitlarga bog‘liq: musiqiy fanlar o‘rtasida uzviy aloqani o‘rnatish, o‘quv jarayoni, darsdan tashqariy musiqiy faoliyat va musiqiy pedagogik amaliyotni uzviy ravishda tashkil etish, barcha musiqiy faoliyat turlaridan bir vaqtning o‘zida unumli foydalanish va boshqalar.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi:

Bitiruv malakaviy ish kirish qismi, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlarro‘yxati va ilovadan iborat.

Kirish qismida: Muammoning dolzarbligi asoslanib borilgan, ilmiy ishning obyekt, predmeti, maqsadi, vazifalari, ilmiy farazi, metadalogik asosi metodlari hamda himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlari aniqlab berilgan.

Birinchi bobda – “O‘zbekistonda bolalar musiqatarbiyasining tarixiy va nazariy asoslari”da bolalar musiqasining rivojlanish tarixi, 80-90 yillarda bolalar musiqasida yangi janrlarning paydo bo‘lishi haqida fikryuritiladi.

Ikkinchi bobda – “Maktabda zamonaviy bolalar qo‘shiqlarini o‘rganish” da o‘zbekiston kompozitorlarining bolalar va o‘smirlar uchun musiqiy ta‘lim va tarbiyaga qo‘shgan hissalar, 5-7 sinflarda zamonaviy bolalar qo‘shiqlarini o‘rgatish usullari haqida yozilib, shuningdek, sinov-tajriba natijalari son va sifat tomonidan tahlil qilib berildi.

Xulosa – tadqiqotning asosiy natijalariga ta‘rif berilib, umumiy xulosalar chiqariladi. Muammoning bundan keyingi istiqbollari va yechilishi zarur bo‘lgan masalalar yuzasidan fikr yuritiladi.

I. BOB. O‘zbekistonda bolalar musiqa tarbiyasining tarixiy va nazariy asoslari.

I.1. O‘zbekistonda bolalar musiqasining rivojlanish tarixi.

Jamiyatning kelajaki, ravnaqi va taraqqiyoti tarbiya bilan bevosita bog‘liqdir. Zero tarbiya inson tafakkurini yuksaltiradi, maamlakatimiz mustaqilligiga erishkach, yurtboshimiz o‘zining ilk nutq va ma‘ruzalarida birinchi asarlaridayoq tarbiya masalasini to‘g‘ri qo‘yishga e‘tiborini

qaratdi. Ayniqsa “o‘z-o‘zini anqlashini tiklashi,” har bir fuqoroning mustaqil davlat bilan mag‘rurlanishi,”O‘zbeklarning milliy g‘ururini ma’naviy yuksaltirish,”O‘z xalqiga , uning an‘analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalash” xaqidagi fikrlar tarbiya muammolarini to‘la hal qilish uchun berilgandir.Tarbiya, xususan milliy tarbiya, davlat va jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rinni ekallaydi.O‘zbek xalqining tarixiga nazar tashlansa, bir umr tarbiya muammosini hal qilish asosiy o‘rinni ekallagan.

Yusuf Xos Hojib, Al-Beruniy, Al-Farobiy singari olimu - shoirlarimiz asarlarida ham tarbiya masalasika alohida e’tibor berilgan.

Yuqoridagi dalillar har bir tarixiy davrda, har qanday jamiyatda tarbiyaning zarurligini ko‘rsatadi. Jamiyat taraqqiyotining inson farovonligini tarbiyasiz tasavvur qilish qiyin.

Odam tug‘ilganidan boshlab umrining oxirigacha tarbiyalanadi, tarbiya oladi. Demak, inson kelajagi, xayot va turmushi, ko‘pincha tarbiya bilan bog‘liq.. Shunday ekan inson tarbiyasi u chaqoloqlikidan boshlanadi.U bolaligida qanday tarbiyalangan bo‘lsa, unink xulq-atvori, axloq odobi shunga qarab shakllanadi. Shuning uchun bizning jamiyatimizda bola tarbiyasiga asosiy diqqat- e’tibor qaratilkan. xalqimizda “Bolalar kelajakimiz” degan hikmat bor.”Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da shu hikmat o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unda erkin fuqorolik jamiyatning ma’naviy barkamol, e’tiqodini butun, axloqiy pok,odobli avlod bunyod eta olishi alohida qayd qilingan. Yosh mustaqil O‘zbekiston jamiyati taraqqiyoti va uning kelajagi asosini bola tarbiyasi tashkil qiladi.Jamiyat ravnaqi bilan bola tarbiyasi mushtarakdir.

2. 30-40 yillarda ilk bor bolalar musiqasi to‘plab va yaratish uchun YE.Ramonovskiy, Il. Akbarov, Y.Rajabiy kabi kompozitor va bastakorlar o‘zbek xalq qo‘shiqlari, folklor asarlarini to‘plab bolalar uchun 1936 yili “30 ashula” nomli to‘plam nashr etdilar.1942 yili Nadejdina ”Yosh bolalar”, Shu yili Il.Akbarov tomonidan “Bolalar ashulasi” kabi to‘plamlar nashr qildilar.Mana shu davrda bolalar qo‘shiqlarida yangi mavzularga e’tibor qaratildi.Jumladan: maktab, bolalik, Vatanga, do‘stlikga,mehnatga oid qo‘shiqlar shular jumlasidandir.Ushbu yaratilgan asarlar bir ovozda bolalar va bolalar xorlari uchun yaratildi .

Ushbu qo‘shiqlar bolalar ijrosida tanlovlarda, bayramlarda kuylandi.Shu davrda bolalar va o‘smirlar uchun birinchi pyessalar yaratildi.Ushbu bolalar mavzusida ijod etkan kompozitorlardan biri B.Nadejdin edi.Uning yozgan asarlarida O‘zbek xalq qo‘shiqlarining ohanglari ritmlari o‘rin olkgan Masalan: bolalar musiqa maktablari repertuaridagi asarlar:”G‘amgin qo‘shiq”, “Quvnoq marsh”, “Do‘mbira”, “Musiqa darsi”, “Buvijonning hikoyasi”va boshqalar.

Uning asarlarida mumtoz kompozitorlarning an‘analari davom etadi. Shuningdek bolalarda insonlarga ,tabiatga, atrofdagi dunyo olamiga , o‘zbek xalq musiqasiga muhabbat uyg‘otadi. XX

asrning 30-40 yillari ijodiga bo'lgan tayyorgarligi o'smirlar, bolalar musiqalarini yaratilishiga va ravnaq topishiga yo'llanma bo'ldi.

30-40 yillarda Konservatoriya va O'zbekiston davlat filarmoniyasi ochildi shuninkdek, O'zbekiston Respublikasini madaniy hayotida muhim voqealar bo'ldi. Bolalar musiqalari yaratildi. O'zbekiston kompozitorlarini aynan shu davrda bolalar va o'smirlar musiqalariga katta e'tiborni qaratdilar. Mana shu davrda O'zbekiston kompozitorlari G'.Qodirov, M.Nasimov, D.Zokirova, B.Giyenko, S.Yudakov, Sh. Ramazonov, F. Nazarov, K.Mushel, A.Muhamedov, S.Varelaslarning ijodi gurkiragan edi. Ularning yaratgan qo'shiqlarini avlod ijrochilari va tinglovchilar ijobiy qabul qilishdi. O'zbekistonning eng yetakchi nashiryotlari (G'.G'ulom va O'qituvchi) eng ko'p sonda bolalar va o'smirlar uchun to'plamlar nashr eta boshladilar.

XX asrning 30-40 yillardagi kompozitorlarni ijodini to'lishga tayyorgarlik bo'lsada, bolalar musiqasini yaratish, yoshlar ijodini eng gurkiragan davri 50-70 yillarga to'g'ri keldi.

50-70 –yillarni O'zbekiston kompozitorlarining bolalar va o'smirlar ijodiga bo'lgan qiziqishni yangi pog'ona davri deb atash mumkin edi. Aynan mana shu davrda O'zbekiston kompozitorlarning tajribali mutaxassislarni qo'shiq janr ijodi gurkiradi. Bular: T.Sodiqov, M.Ashrafiy, M.Burxanov, K.Abdullayev, D.Zokirov, G'.Qodirov, B.Giyenko, I.Hamroyev, II.Akbarov, S.Boboyev M.Nasimov, S.Yudakov, Sh.Ramazonov, F.Nazarov, K. Mushel, A.Muxammedova, S.Varelas, kabilardir.

Boris Nadejdinni tahriri asosida 1950 y.da – “Bolalar qo'shiqlari”, “Yoshlik qo'shig'i” 1955y.da “Bolalar ashulasi” nomli to'plam; G.Goncharovning 1951yilda “Boshlang'ich maktabda musiqa”, I.Akbarovning 1959 y.da “Biz kuylaymiz” qo'shiqlari yaratildi.

60 yillarga kelib bolalar uchun yozilgan to'plamlari nihoyat yuksak darajada ko'paydi. O'quv qo'llanmalar xrestomatiyalar nashr etildi. Umumta'lim maktablarini musiqiy adabiyotlarida asosan bolalar qo'shiqlari joy oldi..

50-70 yillardagi kompozitorlarni ijodi yangi avlod ijrochilari va tinglovchilari ichida hozir ham mashhurdir Barcha yetakchi nashriyotlar kichik ijrochilar, bolalar va o'smirlar uchun katta to'plamlar nashr etishdi.

60-70- yillarda bolalar musiqasini yaratishda kompozitorlar S.Babayev, YE.Shvars, K.Abdullayev, S.Abramova, A.Berlin, Sh.Yormatov, H.Rahimov kabi kompozitorlar ajoyib mutaxassis kompozitorlar safini to'ldirdilar. O'sha davrda O'zbekistonda bolalar uchun yangi sahifa ochildi. 30- 60 yillarda bolalar asarlarida tersoviy 2 va 3 ovozli bo'lsa. 70- 80 yillarga kelib folklorga qaytish, bolalar qo'shiqlarini ko'p ovozda kuylash, xalq polifoniya elementlaridan foydalanish, bolalar musiqasiga ko'p ovozli garmonik elementlar kiritildi.

70 yillarga kelib birinchi kontata va syuitalar, vokal xor akapella asarlari, bolalar, solistlari va orkestrlari uchun yangi asarlar yaratila boshlandi.

60-70 yillarda ajoyib kasb egalari bolalar uchun nodir asarlar yaratishgan.Bular: 2,3 ovozli qo‘shiqalar mualliflari S.Boboyev, YE.Shvars, K.Abdullayev, S. Abramova, A.Berlin, Sh.Yormatov kabilardir.Mana shu davrlarda ularning ijodi gurkiradi.70- yillarda xalq qo‘shiqlari va vokal xor va ko‘p ovozli kuylashlarga, e‘tibor berildi.Ushbu yillarda kontata va syuitalar bolalar uchun vokal –xor, a‘kapella asarlari, syuitalar bolalar uchun vokal-xor a‘kapella asar, solist va orkestr uchun asarlarini birinchi bor yozila boshlandi. Misol uchun G‘.Qodirovning ” Maktabjon oftobjon- oftobjon” (1974 yil) o‘quvchi yoshlar ichida eng sevimli syuitalardan ,”O‘qituvchimiz”.asaridir.

Yosh avlodni ajoyib xalq musiqalari bilan tanishtirib uni qayta ishlab folklorga qiziqish uyg‘otila boshlandi.O‘zbek xalq musiqalar qayta ishlanib pyessalar yaratildi. Masalan: “Dilbar”, “Chamanda gul” va boshqalar. Kichik pianistlar uchun H.Azimov bolalar pyessalarini katta hajimda fortepiano darslari o‘quv qo‘llanmasini yaratdi. So‘ngra I.Akbarov tomonidan ajoyib fortepiano miniatyuralari yaratildi.Uning asarlari xalq musiqalaridan ajralib turadi va ayniqsa an‘anaviy xalq janrlariga obrazlar yaratishga intiluvchan, bolalar dunyosi bilan bog‘langan yorqin va aniqdir. Masalan “Bekinmashoq o‘yini”, “Quvnoq kayfiyat ”, hazil toifali o‘zbek ohanglaridan iborat bo‘lgan bolalar qo‘shiqlaridir.

“Karvon ” nomli pyesa qo‘shiq va raqsona xarakterga ega. Kompozitor tomonidan yaratilgan (Alla) qo‘shig‘i esa, yevropa miniatyuralari ham hamohankligida yaratilgan.O‘sha davrda o‘zbek kompozitorlari juda ko‘p ajoyib asarlarni bolalar uchun yaratishdi. B.Giyenko, S.Varelas, F.Nazarov kabi kompozitorlarining pyessalari to‘plam kichik pianistlar uchun yaratilgan.

60- yillardan boshlab teatr dasturlarida bolalar operalari va baletlar yaratildi. Masalan:operalar V.Xaetanning “Etik kiykan mushuk”, S.Boboyevning “Yoriltosh”, Ushbu bolalar uchun yaratilgan spektakllar hozir ham o‘z qadrini yo‘qotmagan holda sahnalarda namoish etilyapdi. Etik kiygan mushuk ertaki mashhur ertakchi Sharl Perro qalamiga mansubdir Operasini esa rus kompozitorlar yaratgan. S.Boboyevnink “Yoriltosh ” operasi 1967 yili o‘zbek xalq ertagi asosida yaratilgan.

1975 yili arab xalq ertaklari asosida yana bir bolalar uchun opera yaratildi.Kompozitor bolalar diqqatini murakkab janrga qaratadi.Unda bolalar uchun mashhur bo‘lgan xalq qo‘shiqlaridan foydalanadi. Kompozitor bolalarni yosh xususiyatini xisobga olib musiqani qabul qilishda qahramonlarni tasvirleydi. Masalan: “Etik kiygan mushuk” , 1001 kecha, Aloudinning sexrli chirog‘i va b.

1970 yillarning boshida bolalar estrada janri qo‘shiqlari rivojlana boshlanadi. Ushbu jarayon ayniqsa kompozitor N.Norxo‘jayev, X.Raximov, Sh.Yormatov kabilarda namoyon bo‘ladi. Kompozitorlar bolalar uchun vokal – xor syuitalari va kontatlar yarata boshlaydilar. Xar bir kompozitorlar xalq qo‘shiqlariga folklorga murojat etishadi. Asarlar ohanglarida ritmik talaffuz, kuychanlik xarakter bilan xam -oxang bo‘ladi. Bolalar uchun yaratilgan vokal xor asarlari zamonaviy musiqiy madaniyatga yo‘naltirilib teatrlashtirildi.

Misol uchun: xor teatrlari uchun moslashtirilgan qo‘shiqlardan “Dangasa”, “Dakang xo‘roz”, “Oq terakmi-ko‘k terak” va boshqalar. Mana shu davrga kelib K.Kenjaye va Sh.Yormatovlarning bolalar xorlari uchun a‘kapellalar yaratishna qiziqishi o‘sdi.

1970 yillarda ijldi gurkiragan kompozitorlardan Nadim Norxujayev Uzbekistonda xizmat kursatkan madaniyat xodimi, Uzbekiston Davlat konservatoriyasi professori, kompozitor. U uzining musikiy asarlari, ayniqsa estrada va bolalar uchun yaratgan qo‘shiqlari bilan el – yurt hurmatiga sazovar bo‘ldi.

N.Norxujayev 1963 yili Xamza nomidagi musiqa bilim yurtiga o‘tkaziladi . Mashhur kompozitor Rumil Vildanovdan musiqa sirlarini o‘rganadi. 1967 yili simfonik orkestr uchun bastalagan “Syuita”si bilan a‘lo baholarga o‘qishni bitiradi. O‘sha yili Toshkent Davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetika o‘qishga kiradi. U o‘z faoliyatida qo‘shiq janriga ko‘proq ahamiyat beradi. 1972-1975 yillari Bekobod musiqa bilim yurtida, musiqa maktabida o‘qituvchi va bo‘lim mudiri bo‘lib ishlaydi. 1975 – 1976 yillarda “Melodiya” firmasining ovoz yozish studiyasida bosh muxarrir vazifasida ishlaydi. A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat institutida o‘qtuvchi, katta o‘qituvchi, dotsent bo‘lib, ayni paytda Toshkent Davlat konservatoriyasi estrda ijrochilik kafedrasini mudiri, 2003-yildan professor lavozimida ishlab kelmokda.

N.Norxo‘jayev fortepiano uchun 3 ta prelyudiya, 2 ta variatsia, sonatina, fortepiano uchun 2ta sonata, skripka va simfonik orkestr uchun “Konsertino”, 4 qismli simfonik syuita, 1 qismli va simfoniya va ko‘pgina qo‘shiqlar yaratdi. N.Norxujayev ijodida qo‘shiq ustivor ahamiyat kasb etadi. U zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda 100 dan ortiq estrada va bog‘cha bolalari hamda maktab o‘quvchilariga atab qo‘shiqlar yaratadi. Yosh bolalar uchun 1975 yilda yozilgan “Xakkalar” ilk estrada qo‘shig‘i “Paxtaoy” nomli vokal cholg‘u ansambli ijrosida mashhur bo‘lib ketdi. Jumladan: “Yaxshi bola”, “Dangasa”, “Ex orzular”, “Antiqqa musobaqa”, “Diyor madhi”, “Balig‘im”, “Salom bergan bolalar”, “Surxondaryo”, “Chamandaki gullarmiz”, “Boboxo‘roz”, “Dono bolam” kabi o‘qshiqlari “Bulbulcha” xori ijrosida ommalashib ketgan. Bolalar xori uchun “Xafta” kantatasi, “Daraxtlar suxbati” xor syuitasi, o‘zbek xalq qo‘shiqlarini xor uchun qayta ishlaydi. “Osmondaki oy”, “Choriy chambar”, “Chuchvara kaynaydi” qo‘shiqlari shular

jumlasidandir. Nadim Norxujayev O‘zbekistonda xizmat kursatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni bilan takdirlangan. Respublika “Ofarin-2000 “ko‘rik tanlovi sovrindori, O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi a‘zosi va Respublikamizda o‘tkazilayotgan turli ko‘rik tanlovlarda hakamlar hayati a‘zosi.

Nadim Norxujayev zamonaviy uzbek kompozitoridandir. U bolalar uchun ko‘plab qo‘shiqlar yaratgan. Nadim Norxo‘jayevning «Diyor madhi», ona Vatan xakidagi qo‘shiqlari bolalarga ritimini tushinarli va kuychanligi qulay ijrosi, yoqimli va esda saqlab qoluvchanligi bilan boshqa kompozitorlardan farq kiladi. Biz o‘zbek kompozitorlarining qo‘shiqlari mazmunini o‘quvchilarga gapirib, suhbat o‘tkazib Ona Vatan haqida kelajak haqida, har xil hunarlar haqida, tabiat haqida, albatta o‘quvchilarni orzulari kelajakdagi ishlarga intilishining ulkanligi haqida o‘zbek kompozitorlari qo‘shiqlari orqali bolalarni Vatanni va Vatan obro‘cini asrash kabi ichki his tuyg‘ularini tarbiyalaymiz.

I.2.XX asrning 80-90 yillarida bolalar musiqasida yangi janrlarni paydo

bo‘lishi .

O‘zbek zamonaviy musiqasi deganda, hozirgi kundagi ijro etilayotgan barcha musiqa turlarini tushunamiz. Ular janr nuqtai nazaridan rang-barang bo‘lib, oddiy musiqiy namunalardan tortib murakkab asarlarni ham o‘z ichiga oladi. Demak, bular o‘zbek xalq folklore musiqasi, maqomlar, an‘anaviy bastakorlik va zamonaviy kompozitorlik ijodiga mansub musiqiy namunalardir. Zamonaviy o‘zbek musiqasi orasida kompozitorlik ijodi juda keng rivojlanib, xalq orssida ommalashdi. Ya‘ni jahon musiqa madaniyatidan joy olgan opera, balet, simfoniya, oratoriya, cantata, musiqali drama, syuita, poema kabi janrlarda yetuk asrlar yaratildi. Qisqa davrda qator kompozitorlar tarbiyalanib tanildilar. Ular orasida Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov< Sobir Boboyev, Sulaymon Yudakov, Mutal Burxonov, Rustam Abdullayev, Mustafo Bafoyev, Sayfi Jalil kabilar, baletlar yaratgan- Aleksey Kozlovskiy, Ikrom Akbarov, Ulug‘bek Musayev, bir nechtdan simfoniya va konsertlar mualliflari-Mirsodiq Tojiyev , To‘lqin Qurbonov, Mirxalil Mahmudov, Rashid Hamroyev, Georgiy Mushel, Nuriddin G‘iyos, Syfi Jalil va boshqalardir.

Mustaqillik sharoitida xalqning ma‘naviy madaniyatini rivojlantirish va mustahkamlash ishlari muhim davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masalalarga aylangan. Xalq an‘analarini va qadimgi Navro‘z kabi bayramlarni tiklash, yangi – Mustaqillik, Konstitutsiya, bilimlar va murabbiylar bayramlarini joriy etish, xalqaro musiqa festival va anjumanlarni tashkil etish –

buning xammasi musiqa, shu jumladan xor madaniyati sohasida yangi shakllarni izlab topish, faoliyatini jadallashtirishni talab etmoqda.

Samarqand shahrida an'anaviy tarzda o'tkazilayotganda "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivalining mohiyati ham Sharq mumtoz musiqasi vositasida millatlararo ma'naviy rishtalarni qayta tiklamoq va ularga zamonaviy mazmun bag'ishlamoqdan iboratdir.

Bu festival YUNESKO va musiqa bo'yicha Xalqaro Kengash tomonidan tasdiqlangan va unda o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq, ozarbayjon, afg'on, eron, turk, arab, xitoy, yapon va boshqa millat xalqlari o'z san'atlari hamda mumtoz musiqalarini namoish etadilar.

Respublikamizdagi ijodiy kuchlarning yuksalishi bolalar ijodi sohasida ham o'z aksini topmoqda. Yosh avlodni musiqali estetik tarbiyasi ishlarining rivojiga «Biz – O'zbekiston bolalarimiz», «Chegarasiz go'zallik» tanlovlari, «Ustalar shaharchasi», «Qadimgi rivoyatlar kulgisi», ataqli hofiz va bastakorlar hoji Abdulaziz Abdurasulov, Jo'raxon Sulstonov, Ma'murjon Uzlqov, Komiljon Otaniyozovlarga bag'ishlangan xonandalar tanlovlari yaqindan yordam bermoqda.

Bu yo'nalishdagi yangi tashabbuslar sifatida «O'zbekiston Vatanim manim» qo'shiq tanlovi, yosh ijodkorlar (shu jumladan, yosh xonandalar) tanlovlarini ko'rsatish mumkin. Ayniqsa 1997 yildan boshlab o'tkazilayotgan «O'zbekiston Vatanim manim» qo'shiq tanlovida boy va qiziqarli tajribalar orttirilgan. Unda barcha maktab xor jamoalari qatnashib, eng zo'r ijodiy kuchlarni namoyish etmoqda. Jamoalarning badiiy rang – barang bo'lib, YE.Shvars, Sh.Yormatov, N.Norxo'jayev, A.Varelas, D.Omonullayeva va boshqa kompozitor asarlarini qamrab olgan. Xor rahbarlari qo'shiq tanloviga tayyorlanish jarayonida bolalar bilan kata ijodiy va tarbiyaviy ishlarni bajarmoqda.

Respublika madaniy hayotida «Bizning kelajagimiz» bolalar ijodiy festivali ham yorqin iz qoldirgan. U «Yorqin yulduzchalar» jamg'armasi, Uspenskiy nomidagi musiqa maktabi va «Festival» interklubi tomonidan 2002 yilda tashkil etilgan. Festival dasturida bolalar badiiy ijod ko'rgazmasi hamda bolalar ijodiy (jumladan, xor) jamoalari qatnashgan.

Mustaqil O'zbekiston musiqa madaniyati badiiy turlarining hilma-hilligi bilan ajralib turadi. Bunga hozirda mavjud bo'lgan milliy mumtoz musiqa an'analari, xalq ijodi, kompozitorlar faoliyati, badiiy xavaskorlik shakllari hamda keng rivoj topgan estradi yo'nalishlari dalolat beradi. Zamonaviy kompozitorlar ijodida yangi uslublarni mujassam etgan asarlari paydo bo'lmoqda. Oxirgi paytda bolalar uchun estrada yo'nalishidagi, pop-musiqa uslubida yaratgan asarlarini ijod etish ham yuz bermoqda. Bunga N.Norxudjayevning «Burgut va toychoq» musiqali ertagi, A.Ergashevning «Morozko», «Yer osti podshohining hazinasi»,

A.Mansurovning «Hayvonlar sultoni», «Oʻzga sayyorali robot» operalari yorqin misollar boʻla oladi.

Oʻzbekiston bolalar xor madaniyati rivojiga, bu sohada erishilgan yutuqlarga ajoyib musiqachi, bolalar xor sanʼati faol targʻibotchisi, Oʻzbekiston xalq artisti, «Sogʻlom avlod uchun» ordeni sohibi, Oʻzbekiston teleradio kompaniyasining «Bulbulcha» bolalar xorining badiiy rahbarii va bosh dirijyori Sh.Yormatovning qoʻshgan xissasi nihoyatda salmoqlidir. Respublika bolalar xor sanʼatidagi koʻpgina ijodiy tashbbuslar uning nomi bilan bogʻliqdir. U doimo xor madaniyati rivojlanishidagi yangi yoʻllarini izlab topmoqda. Konservatoriyada oʻqish davrida Sh.Yormatov Respublika bolalar va oʻsmirlar saroyi qoshida bolalar xorini tashkil etdi.

Konservatoriyani tugatgandan soʻng Sh.Yormatov oʻsha maktabning oʻzida, xor toʻgaragi rahbarii va musiqa oʻqituvchisi sifatida ishini davom ettirdi.

SH.Yormatovning tolmas tashkilotchilik faoliyati undagi ishtiyoq, bolalarga boʻlgan muhabbat yuqori darajadagi kasbiy mahorati qisqa muddat ichida unga xorning ijrochilik saviyasini yanada yuqori bosqichga olib chiqish imkonini berdi. Oʻzining ijodiy yoʻlini topib olgan ushbu xor jamoasi endi xor musiqasi ishqivozlari, barcha musiqa shinavandalari orasida shuhrat qozonib, turli respublika va chet el koʻrik-tanlovlarida qatnashchi va sovrindor boʻlib, shuningdek, davlatimizda oʻtkaziladigan barcha bayram tadbirlarida faol ishtirok etmoqda. Sh.Yormatovning ijodiy sinchkovligi, izlanuvchanligi, bolalarning musiqa tarbiyasiga oid yangi shakllariga moyilligi, unga maktab musiqali-xor sinflarining tashkil qilishga imkon berdi. Aksariyat hollarda ushbu sinflarga musiqali qobiliyati bor bolalar qabul qilingan. Bular respublikamizda xor studiyalarining tarkibiy qismi sifatida ilk bor tashkil qilingan xor sinflaridan edi. Bularning hammasi xor mashgʻulotlarining faollashuvi va samaradorligiga asos boʻldi. Aynan shu davrda Sh.Yormatov maktabda oʻzini barqaror va oʻziga xos jamoa sifatida koʻrsatgan oʻgʻil bolalar xor guruhini ham tashkil etdi.

Uning oʻziga xosligi, birinchi navbatda, akademik va oʻzbek milliy qoʻshiqchiligi anʼanalarini oʻziga mujassam etgan yangi ijrochilik yoʻnalishida namoyon boʻldi. Oʻziga bolalar xor jamoasining konsert faoliyati tez orada uni mashhur qildi va oʻzbek oʻgʻil bolalarini xor ijrochiligiga jalb etishda kata ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, 1970 yillarining oʻrtasida Toshkent shahar 99-maktabida «Boychechak» kata xor guruhi, oʻgʻil bolalar xori qizlar vokal ansambliga asos solindi.

Yil sayin xor jamoalarining ijrochilik mahorati yuksalib bordi, dasturlari kengayib, konsert chiqishlari koʻpaydi. Maktabning ikkala xor jamoalari «Do, re, mi, fa, sol», «Kuylang bolalar», «Birga kuylaymiz», «Sanʼat gʻunchalari» kabi bolalar televizion dasturlariga jalb etildi. «Boychechak» xor jamoasi Oʻzbekiston boʻylab gastrolda boʻlgan, Fiilyandiya, Bolgariya

xor jamoalarining festival – tanlovlarida, bir nacha marta Estoniyada qo‘shiq bayramlarida qanashgan. 1970 yilda «Boychechak» xor studiyaga aylanib, «Respublikaning namunali bolalar xor jamoasi» unvoniga sazovor bo‘lgan. Gastrol faoliyati kengligi tufayli uning boy va rang-barang (jahon mumtoz, O‘zbekiston kompozitorlar xor asarlaridan iborat bo‘lgan) dasturlaridan turli xalq qo‘shiqlarining ham o‘rin olishga sabab bo‘lgan.

Afsuski, bolalar saroyidagi sharoitning yetishmovchiligi tufayli o‘g‘il bolalar xor jamoasi 10 yilgi faoliyatidan so‘ng 1980 yillarda tarqalib ketdi.

O‘zbekiston kompozitorlarining bolalar xor musiqasi sohasidagi faol ijodi, turli ko‘rik-tanlov, festival, qo‘shiq bayramlarining o‘tkazilishi 1970 yilda O‘zbekiston Davlat teleradio qo‘mitasi qoshida Sh.Yormatov boshchiligida bolalar xor jamoasi tashkil qilindi. Bugungi kunga kelib, bu jamoa-respublikamizdagi eng mashhur O‘zbekiston teleradio kompaniyasining «Bulbulcha» bolalar xoriga aylandi. Bolalar xorining jarangdor, zavqu-shavqqa to‘la san’ati barcha xor musiqasi muxlislariga ma’lumdir. Repertuardagi asarlarning ijrosi yuksak mahorat, musiqaviyligi, jonliligi, samimiyligi bilan ajralib turadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, bu jamoa mashhur xor jamoalari (Rossiya markaziy televideniye va radiosi qoshidagi kata bolalar xori, xor studiyasi) tajribalariga ijodiy suyanib, xor ijrochilarini tayyorlash va tarbiyalashning o‘ziga xos qoidalariga asos soldi. hozirda jamoa tarkibida 600 ga yaqin bola bo‘lib, u o‘zining quyidagi tuzilmasiga ega:

- maktabgacha bo‘lgan bolalar guruhi;
- kichik xor guruhi;
- o‘rta xor guruhi;
- o‘g‘il bolalar xor guruhi;
- yoshlar xor guruhi;
- folklor xor guruhi.

Xor jamoasi Sh.Yormatov keyinchalik o‘zining maslakdoshlariga aylangan, «Bulbulcha» xorida vokal maktabini o‘tgan xor-dirijyorlari (ularning deyarli barchasi konservatoriya bitiruvchilari)ni taklif etdi. Bular S.Olimov, A.Nesterova, N.Ibrohimova, G.Mansurova, D.Sobirova, N.Mirzayeva va boshqalardir.

Ma’lumki, har bir davr yoki zamon o‘z taraqqiyot darajasi negizida o‘z ma’naviy dunyosiga ega bo‘ladi. Jamiyatning ehtiyojga xos talab, didiga mos dunyo qarashlari zamonasiga mutanosib holga shakllanadi.

Istiqlolimiz tufayli shakllangan yangicha fikrlash, munosabatlar va dunyo qarashlar o‘zimizga os bo‘lgan milliy istiqloq g‘oyasiga asos soldi. Bu esa kelajagi buyuk davlatning ma’naviy barkamolligidan darakdir.

Bugungi kunning asosiy talablari, har bir sohada mustaqil bo'lish, milliy qadriyatlarimizni tiklash va jahon andozalari doirasida faoliyat ko'rsatishdan iboratdir. Buni biz musiqa san'atimizning tez rivoj topgani va ommaviy musiqiy shakllarining xalqimiz orasida keng tarqalganida ko'ramiz. Musiqamizda zamon ruxi bilan sug'orilgan umumbashariy musiqiy shakllari o'sib bordi, go'yoki musiqamizning ayrim shakllari tubdan o'zgargandek. Zamonaviy musiqamiz asl holini zamonaga xos saqlab, yangi dunyoviy janrlar bilan boyib borayotganini qayt etishimiz joiz.

II.BOB .Maktabda zamonaviy bolalar qo'shiqlarini o'rganish.

II.1. O'zbekiston kompozitorlarining bolalar va o'smirlar uchun musiqiy ta'lim va tarbiyaga qo'shgan hissasi.

O'zbekiston umumta'lim maktablarida musiqa talim tarbiyasining asosiy maqsadi yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan. Hamda umumbashariy musiqiy qadriyatlarni idrok eta oladigan madaniyatli insondarajasida voyaga yetkazishdan iboratdir.

Bugungi kunda kundalik hayotimizda ko'plab bolalar qo'shiqlari yaratilmoqda. Bolalarning sevimli bastakorlari turli janrlarda ijod qilib yuksak cho'qqilarga ko'tarilmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi musiqasining muallifi, ko'pgina davlat mukofotlari sovrindori Mutal Burxonov(1916). Buxoro shahrida tavallud topdi. 1949-yili Moskva konservatoriyasini tugatgan. M. Burxonov musiqa san'atining turli janrlarda ijod qilib keldi. Uning qo'shiqlari, lirik romanslari, jo'rsiz xor uchun qayta ishlagan turli sharq xalqlari qo'shiqlari, jozibali vocal-simfonik asarlari, kino musiqalari, "Alisher Navoiy" operasi va boshqa asarlari zamonaviy musiqa merosimizdan o'z o'rini olgan.

O'zbekiston xalq artisti, dotsent, kompozitor Ibrohim Hamroyev(1916-1999)

XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Kompozitor butun umri davomida turli shakl va janrlarda asarlar yaratib, ma'naviy hayotimizni boyitishga xizmat qildi. U yaratgan 4 qismli simfonik syueta, simfonik poema, "O'zbekiston", "Bu sening ilhoming", "Seni ulug'layman", ko'p qismli kantatalar, ayniqsa shoh asari "O'zbekiston xotin qizlari" kantatasi unga shuhrat keltirdi va respublika mukofatiga sazovor bo'ldi. U o'zbek musiqasi asosida "Solfedjio" fanidan 2 qismli darslik chop ettirdi.

Teatr uchun kompozitor "Milixobbonu navi tovon", "Bir g'uncha ochilguncha", "Shoirning orzusi", "Intiqom" musiqali dramalarini, "Oyjamol", "Cho'l chaqmog'i" operalarini yaratdi.

I.Hamroyev o'zbek xalq yakka cholg'u va orkestriga bastalagan asarlari orasida, ayniqsa chang uchun yozilgan ikkita "Konsert" va qashqar rubobi uchun yozilgan konsertlari mashhur bo'lib, sozandalar o'quv dasturidan keng o'rin olgan.

Kompozitor qo'shiqchilik sohasida ham o'z hissasini qo'shdi. Uning "O'zbekistonim mening", "Baxtimiz charog'boni", "Qiz orzusi", "Dilda bahor o'ynaydi", "Odamlardan so'roqlab", "Tinglang meni, sayyoralar", "Dilbarim, jonim", "Go'zal qizga", "Yur sayyoraga chiqaylik", "Bahor bayrami", "Sayyoralarga", "Men-chi kapitan", "Chaman", "Rubobim", "Ofarin ilhomi", "Har bahor, har kuzda" va boshqa qo'shiqlari fortepiano va ko'plab o'zbek cholg'ulari uchun "O'zbekiston bo'l omon" balladasini yaratdi. Uning bolalarga atalgan ko'pgina qo'shiqlari bor.

O'zbekiston xalq artisti, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, atoqli kompozitor Ikrom Akbarov(1921) o'zining simfonik asarlari, kantata, oratoriya, opera, balet,

musiqali drama va komediya, xor hamda estrada qo'shiqlari bilan o'zbek musiqasi ravnaqiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

Hamzaga bag'ishlab yaratgan "Shoir xotirasi" simfonik poemasi kompozitorga katta shuhrat keltirdi.

U "O'zbekiston syuita"sini, "Eshik poema"sini, "Pochta" syuitasini, "Samarqand hikoyalari", "Orzu" baleti asosida yozgan "Simfonik syuita"sini, "Navro'z" nomli baleti asosidagi simfonik syuitasini, "Raqs", fortepino va "Simfonik orkestr uchun konsert", skripka va simfonik orkestr uchun barkamol asarlar yaratdi.

Kompozitor erishgan ijodiy yutuqlari uning vokal-simfonik, kantata va oratoriya asarlarida ham namoyon bo'ldi. Uning "Hamza" nomli vokal syuitasi, "Ballada"si, "Toshkentnoma" oratoriyasi, "Xamsa" nomli kantatasi, "Abadiyat" balladasi, "Zafarnoma" va "Do'stlik" vokal simfonik poemalari, "Mening mening shahrim" kantatasi, "Mangu xotira" oratoriyasi o'ziga xosligi va badiiy barkamolligi bilan ajralib turadi.

Ikrom Akbarov "Orzu", "Nigor", "Layli va Majnun", "Navro'z" baletlarini yaratib sahna raqs san'atining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Kompozitor "Sug'd elining qoplani". "Ibtido xatosi", "Jaloliddin Manguberdi" operalarini yaratdi.

U "Kumush to'y", "Qiz buloq", "Momoyer", "Qonli to'y", "Kumush shaharning malikasi" musiqali dramalari, "O'jarlar", "To'ydan oldin tomosha", "Yillar o'tib" komediyalariga musiqa bastalab shu janrlarni rivojlanishiga barakali hissa qo'shib kelmoqda.

Kompozitorning atoqli estrada xonandasi O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov uchun maxsus yozilgan va ilk bor yangragan "Ra'no", "Gazli", "Mahbubga", "Ketma, Nigor", "Qaydasan", "Yor kel", "Qo'shchinor", "Qor yog'ar", "Bahor fasli", "Azizim", "Lolazor chorledi" Estrada qo'shiqlari keng qanot yozdi.

Ikrom Akbarov "Hamza", "Sichalak", "Sen yetim emassan", "Osiyo ustida bo'ron", "Qora konsulning halokati", "Ikki dil dostoni", "Gulbahor", "ikkinchi gukkash" filmlari, shuningdek kompozitorlar M. Burhonov va M. Leviyevlar bilan "Maftuningman" va "Orol baliqchilari" filmlariga musiqa bastalagan.

Kompozitorning "Orkestr va tor uchun p'yesa"si, "To'ylar muborak" nomli 5 qismli vokal syuitasi, bolalar uchun turli mavzularda yaratgan qo'shiqlari xalqimizning olqishlaiga sazovor bo'lmoqda.

XX asr o'zbek professional musiqa san'atining rivojlanishiga hissa qo'shgan rus kompozitori Vadim Meyen (1911-1971) ko'p qirrali ijodiy, pedagogic va jamoatchilik faoliyati bilan respublikamiz musiqa tarixi sahifalarida yorqin iz qoldirdi.

Kompozitorning ijodiy faoliyatida teatr spektakllariga va o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga musiqa bastalash ustuvor bo'ldi. U rus, o'zbek drama va qo'g'irchoq teatrlarida sahna yuzini ko'rgan 100 dan ortiq spektakllarga musiqa bastaladi. "Vsegda s vami", "Sluga dvux gospod", "Jdi menya", "obiknovenniy chelovek", "On prishyol", "Povest o chernomortsov", Hamza nomidagi o'zbek davlat teatri spektakllari uchun "Muhabbat", "Brandenburg darvozasi", Respublika qo'g'irchoq tetrlarida qo'yilgan spektakllar; "Skazki babushka Tatyani", "Zaykino gore", "Mau-myau", "Barmaleyeva pogibel", "Vovkina yolka", "Aladdin i volshebnyaya lampa", "Bey dubinka", "Sembo", "Ziyad Batir", "Priklyucheniya Shavkata", "Vali batir", "Semurg" va boshqalar.

V. Meyen ayrim mumtoz xalq kuy va ashularini orkestriga moslashtirdi. Ular orasida "Qashqarcha", "Raqs marshi", "Yangi davron", "Sanam iforisi" asoslarida yozilgan 4 qismli syuita, "Samarqand Ushshog'i", "Guluzorim", "Buzruk", "Bozurgoniy" 4 qismli syuita, "O'yin bayoti", "Muhammasi Bayot", "Nasrulloi 3" va "Nasrulloi 5" lar asosida 5 qismli syuita, P. Mo'min bilan hamkorlikda "Assalom kelajak" nomli kantata asarlarni ko'rish mumkin.

Kompozitor o'zbek xalq musiqasiga tayangan xolda simfonik orkestr uchun "Lirik poema", "Simfionietta" 4 qismli syuita uvertyura, "Paxta bayrami" poemasini yaratdi. "Farg'nacha", "O'lturg'usi", "Galdir", "Ko'p erdi", "Ol xabar", "Bir kelib ketsin", "Nigorim", "Mubtalo bo'ldim senga", "Ufori Nasrulloi" asosida "So'zsiz syuita", "Oybek she'riga "Navoiy" nomli vokal simfonik syuita, klarnet va simfonik orkestr uchun konsert "Napev", "U kolodsa", "Skazaniye", "Plyasovaya" nomli p'esalarini yozgan.

V. Meyen kamer asarlaridan do'sti T. Sodiqov xotirasiga bag'ishlab torli kvartet uchun 4 qismli syuita, Furqat she'rlariga 4 ta romanus, Navoiy she'rlariga 4 ta romans, H. Olimjon she'rlariga 4 ta romans, A.Pushkin she'rlariga 6 ta romans, shuningdek bolalar uchun bir qator she'rlar yozgan.

O'zbekiston xalq artisti sozanda, drijiyor, murabbiy, jamoat arbobi, kompozitor Doni Zolirov (1914-1985) ajoyib qo'shiq, romans, musiqali drama, balet, simfonik va xalq cholg'ulari orkestri uchun bastalagan musiqiy asarlari bilan XX asr o'zbek musiqa madaniyatini boyitdi.

Kompozitorning birinchi yirik ijodi Z. Fatxulinning "G'unchalar" p'esasi uchun bastalagan musiqadir. U ilk ijodiy yutug'idan keyin mumtoz zamonaviy shoirlar she'rlariga qo'shiq va ashular yaratadi. Shu jumladan urush yillari "Ona orzusi", "Zafar topib", "Ol qasos", "Jangda bardam bo'l" kabi vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlar; Navoiy she'rlariga "Orazi" va "O'rtanur" fortepiano jo'rligida qo'shiqlar, simfonik orkestr uchun

1 ta syuita; o'zbek xalq cholg'ulari ansambliga 3 qismli "Mehnat fronti" nomli syuita; bastakor N. Hasanov bilan hamkorlikda "Orzigul" va mustaqil ravishda "Yoriltosh" spektakllariga musiqa bastaladi.

D. Zokirov musiqali sahna asarlar yaratishga kata e'tibor berdi. U B. F. Giyenko bilan "So'nmas chiroqlar" musiqali dramani yozdi. S. Boboyev bilan "Dalada bayram" musiqali komediya, "Vatan qirg'oqlari" musiqali drama, B. F. Giyenko bilan "Yoshlikda bergan ko'ngil" musiqali dram, "Hayot mash'ali" musiqali drama, K. Jabborov bilan "Mening jannatim" musiqali drama, xalq ertagi asosida "Shahzoda va yetim qiz" musiqali dramalari tomoshabinlar tomonidan yaxshi kutib olindi.

U kompozitor M. Ziv bilan hamkorlikda quyidagi babiiy kino filmlarga musiqa bastaladi; "Amirlikni yemirilishi", "Qutlug' qon", "Ulug'bek yulduzi; kompozitor A. Malaxov bilan hamkorlikda "Qaydasan Zulfiya" yoki "Yor-yor", D. Zokirovning bu filmga yozgan yozgan "Ko'chalar" qo'shig'i mashhur bo'lib ketgan.

Kompozitorning Navoiy she'rlariga bastalagan "Ko'rmadim", "Ey sabo", "Bo'lmasa", "Ayb etmangiz", Turob To'la she'riga "Bulbul" nomli romanslari simfonik orkestr jo'rligida D. Mullaqandov, H. Nosirova, S. Qobulovalar ijrosida mashhur bo'lib ketgan edi. Kompozitor turli mavzularda yakkaxon, xor, turli cholg'ular va orkestr jo'rligida ijro etiladigan 100 dan ortiq qo'shiq, ashula, ommaviy xor qo'shiqlar yaratdi. Ular orasida "O'zbekistonim", "Tinchlik qo'shig'i". "Paxtakor diyor", "Kosmos bizniki", "Shifokorlarga", "Terimchilarga", "Do'stlarga", "Ona diyor", "Toshkent oqshomi", "Suv keldi, hayot keldi", "Dugonalarga", "Do'stlik qo'shig'i", "Cho'pon qo'shig'i", "Tinchlik qo'shig'i" xor uchun, "Ikki dil dostoni", "Yor istab", "Hayot gulshani" kabi qo'shiqlar yorqin misol bo'la oladi.

D. Zokirov bolalar uchun "Sayohat rohat", "Kungaboqar", "Oppoq otim", "Sirdaryo, Sirdaryo", "Kapalak va handalak", "Bog'da pishdi uzumlar", "Do'lana", "Bolalar vals", "Bahor vals", "Olma", "Badantarbiya", "Maktabim", "Baxtiyor qo'shig'i", "Yangi yil qo'shig'i" va "Beqiyos diyor" kabi qo'shiqlarni bag'ishlagan.

G'afur Qodirov(1917-1985). ko'p qirrali ijodkor bo'lib, ko'proq kichkintoy bolalarga atab ijod qilgan. Uning "Archa qo'shig'i", "Quyosh va biz" kabi qo'shiqlari maktab va bog'chalarda shu kungacha ijro qilinib keladi. Undan tashqari G'. Qodirov simfonik asarlar, vocal va cholg'u syuitalari, Estrada qo'shiqlari ham yaratgan. Ijod qilish bilan birga, ko'p yillar Toshkent Davlat konservatoriyasida yosh sozanda va xonandalarga ustozlik qilgan.

G'afur .Qodirov bolalarning sevimli kompozitori va ustoz edi.

Serqirra ijodkor Fattoh Nazarov(1919-1982). o'zining butun umrini bolalar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga bag'ishlagan edi. "O'zbekiston xotin-qizlari", "Vatan-bizning onamiz" vokal-simfonik syuitasi, "O'zbek marshi", "Bayram marshi" asarlarining nomi ijodkorning qaysi mavzuga ko'proq murojaat qilganini ko'rsatadi. Fattoh Nazarov ko'p yillar Toshkent Davlat konservatoriyasida yoshlarga murabbiy-ustoz bo'lib ishlab keldi va professor ilmiy unvoniga sazovor bo'lgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, kompozitor Abdurahim Muhamedov (1923-1980) XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. O'ziga xos ovozi bilan xor qo'shiqlari, milliy uslubda yozgan simfonik va musiqiy sahna asarlari zamonaviy madaniyatimizni boyitdi.

Kompozitor ijodida qo'shiq janri yetakchi o'rin egallaydi. Yakkaxon va xor ijrosida aytiladigan ko'plab qo'shiqlar orasida "Jon qizlar", "Yetti qiz", "Shoh suzana", "Kuylayman", "Toshkent ovozi", "Chilonzor chiroyli", "Seni eslayman", "Bir oqshom bo'ydoqman", "Qirg'iz qiziga", "Bir nazzora" lirik va lirik-vayanparvar qo'shiqlari bilan birga xor uchun "Go'zal Farg'ona", "Tinchlik bayroqdori", "Dildor qiz", "Jon O'zbekiston", "Yashna hur Vatan" "Do'stlik qo'shig'i", "Sportchilar qo'shig'i" kabi ommaviy qo'shiqlar ijrochilar repertuaridan keng o'rin oldi.

A.Muhamedov bolalar uchun ham jozibali, original qo'shiqlar yaratdi. Uning "Yulduzcha", "Archa qo'shig'i", "Salimjon nimjon", "Qo'g'irchog'im alla", "Kapalak", "Alla", "Alla qo'zichog'im", "Tantiq qiz", "Saboq ol" kabi qo'shiqlari jajji ijrochi va tinglovchilar qalbidan joy olgan.

Kompozitor qozoq dramaturglari Q. Shang'itboyev va Boyseitovlar hamkorlikda P. mo'min asariga "Jon qizlar", tojik dramaturgi S.Ulug'zodaning "Gavhari shamchiroq" va P. Mo'min p'esasi asosida "Olifto" musiqali komediyalarini yaratdi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor, kompozitor S. Hayitboyev(1926-2000) zamonaviy professional kompozitorlar safiga 60-yillarning boshida kirib keldi. Uning dilrabo qo'shiq va ashulalari, cholg'u kuylari, orkestr uchun yozgan asarlari, musiqali drama va komediyalari, simfonik va vokal-simfonik asarlari muxlislar qalbidan munosib o'rin olgan.

Bastakorning ijodidan qo'shiq va musiqali drama janrlari ustun turadi. Kompozitor qo'shiqlarini mashhur xonandalar va ijrochi jamoalarning iltimoslariga ko'ra yaratib ularning repertuarlarini boyitdi. Masalan, O'zbekiston xalq artistlari- Olmaxon Hayitova ijrosida "O'zbekiston gullari", "O'zbekiston so'zlagay", "Hayol", "O'tmasmikan", Kommuna Ismoilova ijrosida "Ey sohibi dil", "So'zim aytaman", "Istar", Quvondiq

Iskandarov ijrosida “Esingdami”, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar; Hadya Yusupova ijrosida “O‘rgilay bo‘yingdan”, “Oh agar ko‘rsam yana”, “Ovozingni eshitganda” va boshqa xonandalar ijrosida konsert dasturlarida, radio efir to‘qinlarida jaranglab kelmoqda. Bulardan tashqari “Sog‘inish”, “Yulduz bilan”, “Istar”, “Umid g‘unchasi”, “Ketma muhabbat”, “Biz Temur avlodimiz”, “Vafo qilmadi”, “Armon bo‘masin”, “Ravshan aylagil”, “Oh agar ko‘rsam yana”, “Jamolingdan ko‘zim ravshan” kabi qo‘shiq va kuylar yaratdi.

S. Hayitboyev bastakor K. Jabborov bilan hamkorlikda “Nodira” musiqali dramasi yaratdi. U shu janrga mehr qo‘ydi va yillar davomida 14 ta musiqali drama, 2 ta musiqali komediya 3 ta televizion spektaklga musiqa bastaladi. Masalan; “So‘ngi xon” musiqali drama, “Qudalar” musiqali komediya, “Mauzerli qiz”, “Ahmad bilan Oqbilak”, “Saltanat shubhada”, “Yaylov tongi”, “Zavqiy”, “Muhabbat yodgori”, “Farzand deb”, “Charog‘bonlar” musiqali dramalari, “Ikki oshiq bir bo‘lsa” musiqali komediyasi, “Uvaysiy”, “Dilistonim mening”, “Mashrab” telespektakllarga musiqa bastaladi.

Kompozitor skripka va simfonik orkestr uchun konsert, simfoniya, simfonik syuita rubob va o‘zbek xalq orkestri uchun “Konsertli lirik piesa”, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun 3 ta syuita, o‘zbek xalq cholg‘ulari va doira uchun “Doira-raqs p‘esasi”, qashqar rubobi va fortepiano uchun “Ballada”, fortepiano uchun p‘esa, variatsiya, prekyudiya, fuga kabi asarlar musiqa maktablar o‘quv dasturlariga kiritilgan. Bolalar uchun “Turnalar”, “Orzu”, “O‘qi bilim ol”, “Kimning xati chiroyli”, “Internatchilar qo‘shig‘i” kabi qo‘shiqlari yakka ijrochi va bolalar xor jamoalarining repertuar dasturlaridan joy olgan. S. Hayitboyev 1960-64 yillarda T. Husanov bilan hamkorlikda mumta‘lim maktablarining 5 va 6-sinflari uchun “Musiqa” darsligini yaratdi va nashrdan chiqardi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, atoqli kompozitor Sobir Boboyev (1920-2004) ijodiy va jamoatchilik faoliyati bilan respublikamiz zamonaviy musiqa madaniyatiga katta hissa qo‘shgan. Kompozitorning opera, musiqali drama va komediyalari, simfonik, vokal-simfonik va xor asarlari, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun asarlari, qo‘shiq va romanslari ma‘naviy mulkimizga aylandi.

S. Boboyev fortepiano uchun pyesa, sonatina, raqs, klarnet va fortepiano uchun “Rapsodiya”, simfonik orkestr uchun iikita syuita, xor jamoasi uchun Muqimiy so‘ziga “Navbahor”, T. To‘la so‘ziga “Alla”, “Fizkulturchilar qo‘shig‘i”, “Xalqimga”, “O‘zbekiston”, xor qo‘shiqlar: “Bulbul sayraganda”, “Vatan”, “Sendadur”, “Gul sochar” va “Orazing”, qo‘shiqlar: “Ishonmayman”, “Ey sabo”, “Bu hol”, “Do‘stimga”, “Go‘zal vodiy”, “Sening

qo‘shig‘ing” kabi romanslar; R.Bobojonov so‘ziga beshta, T.Mirzo so‘ziga bolalar uchun uchta qo‘shiq bastaladi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun “Poema”, “Bayram uvertyura”si, chang va o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun bastalagan “Konsertino”, simfonik orkestr uchun ikkita syuita, mumtoz xalq kuyi “Segoh” asosida simfonik poema, T.To‘la so‘zlariga “Oq-oltin” vokal xoreografik syueta va “Bayram kuni” vokal simfonik poema, 4 qismli “Hosil bayrami” kontatasi o‘zining milliy ohangdorligi, rang barang xor qzo‘shiq-lari bilan ajralib turadi.

S.Boboyevning butun ijodiy faoliyatida sahna asarlariga musiqa bastalash asosiy o‘rinda turadi. U birinchi musiqfali komediya “dalada bayram” va musiqali drama “Mening sohillarim” D.Zokirov bilan hamkorlikda yaratgan bo‘lsa, mustaqil ravishda “Katta muxabbat”, “Vatan ishq-i”, “Ikki blaguzuk”, “Mayna Hasanova”, “Oltin kamar”, “Muhabbat qo‘shig‘i” musiqali dramalarini, “Temir qafas”, “Shaxrizabz malikasi” musiqali komediyalarini ijod etdi.

S.Boboyev K.Yashin bilan hamkorlikda “Hamza” operasini, keyinroq “Fidoiylar” va bolalar uchun “Yoriltosh” operalarini yaratdi.

Kompozitor yaratgan qo‘shiq, romans, jo‘rli va jo‘rsiz xor asarlarini nomlarini sanash mushkul. Bulardan ayniqsa “Yor ketdi”, “Qalb”, “Meros” romanslari, o‘zbek xalq ashula va qo‘shiq-lari asosida qayta ishlagan “Galdir”, “Tanovor”, “Segoh” kabi jo‘rsiz xor uchun yaratgan qo‘shiq-lari diqqatga sazovor.

O‘zbekiston xalq artisti, bolalarning sevimli kompozitori Sheramat Yormatov (1939)ko‘p yillardan beri yosh qo‘shiq sevarlarga san‘at sirlarini o‘rgatib kelmoqda. Ustozning o‘zi tashkil etgan raxbarlik qilayotgan bolalarning “Bulbulcha” xori nafaqat respublikamizda, balki ko‘plab chet mamlakatlarda o‘zbek bolalar qo‘shiqchilik san‘atini targ‘ibot qilmoqda.

Sheramat Yormatov “Oymomojon rom bo‘ldi”, “G‘ildiragim” , “Sog‘lom avlod qo‘shig‘i” kabi o‘nlab bolalar qo‘shiq-larini yaratgan.

Musiqa san‘atining turli yo‘nalishlarida samarali ijod qilib kelayotgan Habibullo Rahimov (1946-y)bolalar qo‘shiqchiligini boyitish va rivojlantirishga o‘z hissaisini qo‘shib kelmoqda. Uning ko‘pgina yirik asarlari nafaqat O‘zbekistonda, balki chet ellarda ham katta shuhrat qozongan. O‘quvchi yoshlar uchun yozilgan” Do‘mboqchalar qo‘shig‘i”, “Bog‘cha opam”, “Oy bo‘lamiz-toy bo‘lamiz”, “Men –g‘unchaman”, “Ona yurt” kabi bir qator qo‘shiq-lari esa Respublikamizda o‘tkazilgan turli tanlovlarda sovrinli o‘rinlarni egallagan.

Ko‘hna Xorazimning Xiva shahrida tug‘ilib o‘sgan Rustam Abdullayev (1947) o‘zbek musiqa san‘at ravnaqiga o‘zining serqirra ijodi bilan munosib hissa qo‘shib kelayotgan atoqli kompozitorlardan biri. Kompozitor musiqa san‘atining turli janrlarda ijod qilib kelmoqda. “Shodimulk”, “ Sadoqat”, “Xiva” operalari, “ Ona” opera-trilogiyasi, “ Quyoshga ta‘zim”

balet-oratoriyasi, xalqaro miqyosdagi festival va konsertlarda yangragan 5 ta fortepiano va simfonik orkestr uchun konsert, torli orkestr uchun polifonik simfoniya, “ Shodlik taronasi”, “Alisher Navoiy xotirasiga” , “ Taras Shevchinko”, “ Muhabbat dostoni” kabi o’nta simfonik poema, “Xirosimo”, “ Ona qalbi”, “ Hijron”, “ Qalb hayqirig’i” vocal turkumlari, fortepiano va orkestr uchun “ Ratalla”, “ Eligiya”, kamer cholg’u musiqasi-prelyudiya va fugalar, variatsiyalar, p’esalar, “ Fontan oldida”, “Tingla bulbul”, “ Shodlik qo’shig’i”, “ Go’zal vatanim”, “ Hur o’zbek qiziman” kabi yuzdan ortiq qo’shiq, romans va xor asarlari, “ Mustaqillik lolalarimiz”, “ Do’stlik taronasi”, “ Oftob chiqdi olamga”, “Toychoq”, “ Qo’shiq”, “ Kulgan ko’zli bolalar” kabi ellikdan ortiq bolalar qo’shiqlari kompozitor ijodining asosini tashkil etadi.

Rustam Abdullayevning asarlari o’zining mazmundorligi, serqirraligi, musiqiy tilining individualligi bilan ajralib turadi. Kompozitorning asarlari AQSH, Germaniya, Angliya, Misr, Gollandiya, Rossiya, Tailand, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq respublikasi kabi qator xorijiy mamalatlarda muvaffaqiyatli ijro etib kelinmoqda.

Bolalarning sevimli kompozitori Nadim Norxo’jayev(1947-y) bundan yigirma yillar muqaddam o’zining rangbarang qo’shiqlari biln respublikamiz musiqa hayotiga kirib keldi. U bolalarning sevimli shoirlari bo’lgan Po’lat Mo’min, Rauf Tolib, Qambar Ota, Habib Rahmat va boshqa ko’plab ijodkorlar biln hamkorlikda vatanni madh etuvchi, ona tabiatni, do’stlikni tarannum etuvchi qo’shiqlari bilan bolalar mehrini qozondi. Bolalarning xor jamoalari Nadim Norxo’jayevning qo’shiqlarini sevib kuylaydilar. Bastakorning “ Chamandagi gullarmiz”, “ Yaxshi bola”, “ Gullar manim kulganim”, “O’zbekimdan aylanay” (1947-y) kabi o’nlab qo’shiqlari ko’plab qo’shiq tanlovlarida sovrinli o’rinlarni egallagan.

Pedagogika fanlari nomzodi, xor dirijyori, bastakor Qo’ldosh Mamirov (1941) milliy bastakorlik an’analarini davom ettirib, zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda jozibali qo’shiqlar yaratmoqda.

Kompozitor yakka xonanda va vokal ansambl bilan orkestr jo’rligida “Ona allasi”, “Uyg’on tuyg’ular”, “Yo’lim boshlar”, “Sevinch yoshlarim”, “Sen ham yod ayla meni”, “Go’zallik madhiyasi”, “Toshkent, go’zal diyoring”, vokal cholg’u ansambli ijrosida “Bahor”, “Nigohimni uzolmayman”, “Qo’shiqqa navbat”, “Ona yurt qo’shig’i” asarlarini yaratdi. Bulardan tashqari shoir sifatida u 6 ta she’riy poema, 200 ga yaqin she’rlar, to’rtliklar, “Payg’ambarnoma” nomli she’riy roman yozgan.

Kompozitorning xor va akopella (jo’rsiz xor) “Lahza-lahza”, “Miltiraydi bir mitti yulduz”, “O’zbekiston yoshlari”, “Quyosh yurtim”, “O’zbekiston taronasi”, “Toshkent haqida qo’shiq” va “O’zbekiston ona yurt” asarlari ko’rik tanlovlarda sovrinli o’rinlarni egalladi. Xor va

o'zbek xalq cholg'ulari orketri uchun "Istiqlol", "Yor qani", "Turo tonglari", "Go'zal toshkent qizlari", "Dugona kelibdur", "Naqadar go'zaldir", "Ona allasi" qo'shiqlarini, yakka xonanda va orkestr uchun "Bahor sarvinoz", "Muhabbatim", "Anhor labida", "Nighimni uzmayman", "Nigohingda kular bahor" asarlarini yozdi. Bulardan tashqari "O mening qora ko'zlarim" musiqali dramasi, "Qaldirg'och" nomli kinofilmga musiqa bastaladi.

"Biz istiqloq egalari", "Ona tilim – o'zbek tilim", "Ahillik – do'stlik", "Chaqqon bola", "Oppoq qandim" kabi ajoyib qo'shiqlari bilan bolalarqalbidan joy olgan bastakor Farhod Alimov(1941) Toshkentda tug'ilib o'sdi. Yoshligidanoq musiqaga bo'lgan katta ishtiyoq uni, avval g'ijjak sozi sirlarini o'rganishga, so'ngra ompozitorlik mutaxassisligini egallashga chorladi. Bugungi kunda serqirra ijodkor ko'plab musiqali spektakllarga musiqa yozgan, xor va yakkaxonlar uchun talaygina qo'shiqlar yaratgan kompozitordir. Uning simfonik orkestr, xalq cholg'ulari orketri uchun yozgan rang- barang asarlari radio to'lqinlarida muntazam yangrab turadi.

Avaz Mansurov(1957-y) o'quvchi yoshlarning sevimli kompozitorlaridan biri. Uning qo'shiqlari o'zining rang- barang mazmuni bilan, ohangining jozibasi va yoqimliliigi bilan yosh xonandalar qalbidan o'rin olgan.

Kompozitorning "Musqaymoq", "Bolarilar", "Kitob mening do'stimdir", "Istiqlolim" kabi qo'shiqlari shular jumlasidandir .

Avaz Mansurov qo'shiqlar bilan bir qatorda ertak va spektakllar ham yozgan. Uning "Hayvonlar sultoni" nomli bolalar operasi o'zining musiqiy obrazlari va ajib ohanglari orqali tinglovchi va tomoshabinlarni o'ziga rom etib kelmoqda.

Kompozitor Dilorom Omonullayeva(1959-y) serqirra ijodining ko'p qismini bolalarga bag'ishlagan. Uning "Alifbe qo'shiqlari", "Topishmoq qo'shiqlar" deb nomlanuvchi qo'shiqlar to'plamlari hamda "Etikcham", "Humo qushim", "Aziz bo'ston- O'bekiston", "O'zbek elim- bek elim", "Diloromning qo'shig'I" kabi ko'plab rang – barang qo'shiqlari o'quvchi yoshlar ichida mashhur. 1997 yili Samarqand shahrida o'tkazilgan "Sharq taronalari" nomli xalqaro musiqa festivalining madhiyasi ham Dilorom Omonullayevaning qalamiga mansub. Kompozitor turli janrlarda sermahsul ijod qilgan ekan, bolalar uchun yanada ko'plab qo'shiqlar yaratishni o'zining orzusi deb biladi.

Iste'dodli kompozitor Muhammad Abdusharipovich Otajonov(1959) turli janrlarda milliy asosda musiqiy asarlar yaratib, musiqa jamoatchiligini xushnud qilib kelmoqda. Chang va xalq cholg'ulari orketri uchun uch qismli konsert, ikkinchi konsert, xalq cholg'ulari orketri uchun uch qismli syuita, fortepiano duet, qonun va orkestr uchun uch qismli konsert shular jumlasidandir.

U O‘zbek xalqining sevimli musiqali drama va komediya janrlarida ham ijod qilib “Har kimki vafo qilsa...”, “Chirog‘imni kim yoqadi” tragi- komediya, “Dilbar yuraklar”, “Ogahiy” kabi musiqali dramalariga musiqa bastaladi.

M.Otajonov turli mavzularda bir talay jozibali qo‘shiqlar yaratib, xonandalar repertuarini boyitib kelmoqda. Ular orasida “Shirin xotira” va “Sog‘indim”, “Yashnagan o‘lkamga boq”, “O‘ynasin”, “To‘y bo‘lsin”, “Qalamqosh”, “Qarashlaring”, “Mazali” va “Yulduzim”, “Shunday qo‘shiq kuylasam”, “Asrolmadim”, “Meni tushun”, “Qizgina”, “Bahorim keldi”, “Intilib yashayman”, “Setor”, “Jaloliddin”, “Urganchim” qo‘shiqlari bor.

Kompozitor bolalar uchun ko‘plab xor qo‘shiqlarini yaratdi. Shu jumladan “Assalom”, “Beozor musicha”, “Chumchuq”, “Onajon” va boshqalar.

Buxoro shahrida o‘tkazilgan Respublika bolalar xor jamoalirining ko‘rik tanlovida, O‘zbekiston xalq artisti, dirijyor Sh.Yormatov rahbarligida 5000 bolalar qo‘shma xori ijrosida “O‘zbekistonim”, va “Navro‘zjon” M.Otajonovning qo‘shiqlari ikkinchi darajali sovringa sazovor bo‘ldi.

U “Gunoh” nomli telefilmga ham musiqa bastalagan.

Umidli kompozitor Xurshida Nasanovanning (1967) fortepiano, skripka, fleyta, goboy, klarnet, torli cholg‘u asboblari ansambllariga, simfonik orkestrga, xor jamoalari uchun yaratgan musiqa asarlari, ayniqsa, Estrada va bolalar qo‘shiqlari dilkashligi va hayotbahshligi bilan ajralib turadi.

Kompozitor fortepiano uchun “Variatsiyalar”, “P’esalar”, “Sonatina”, fortepiano va simfonik uchun 4 qismli “Konsert”, simfonik poema torli orkestr uchun 4 qismli syuita, jo‘rsiz xor uchun E. Vohidov “Iltijo” ikki qismli turkum xor, skripka, fleta, goboy, klarnet, fagot kabi cholg‘ular, fortepiano jo‘rligida yozilgan p’esalar, yog‘ochli-damli cholg‘ular kvartetiga “Kvartet”larni yaratdi.

X. Hasanova zamonaviy estrada va bolalar qo‘shiqchili san‘atiga e‘tibor qaratib 30 dan ortiq turli mavzularda zamondosh shoirlarning so‘zlariga estrada qo‘shiqlari va bolalar uchun qo‘shiqlar yaratdi. Uning “Chinni gullar”, “Sog‘inaman”, “Yetolmayman”, “Kuz gullari”, “Rostini ayting”, “Alangadan nido”, “Sen uchun” Estrada qo‘shiqlari va “O‘zbekiston jannat”, “Tabassum qil”, “Sog‘inch”, “Turnalar”, “Vatan”, “Kamalak”, “Humo qushi”, “Sog‘lom avlod”, “Lola”, “Majnuntop” kabi bolalar qo‘shiqlari shular jumlasidandir.

Kompozitor 2000-yilda navro‘ga bag‘ishlangan qo‘shiq ko‘rik - tanlovida “Turnalar” qo‘shig‘i uchun 2-darajali mukofotga sazovor bo‘ldi. 2000-yilda chegara qo‘shinlari tomonidan uyushtirilgan askar qo‘shiqlari ko‘rik-tanlovida “Chegaramiz harbiylari” uchun

eng yaxshi bastakor nomini olishga sazovor bo'ldi. U "Zumrasha" kino filmiga va "Archa, archa, archajon" video filmiga musiqa va 9 dan ortiq qo'shiqlar bastaladi.

II.2. 5-7inf o'quvchilarida zamonaviy bolalar qo'shiqlarini o'rgatish usullari.

O'quvchilarda muayyan faoliyatni mustaqil tashkil etishga ijodiy yondashuv pedagogik va axborot texnologiyalari orqali amalga oshirilishi mumkinligi barchamizga ayon. Zero ilgor innovatsion texnologiyalarning maqsadi ta'lim oluvchiga ijodiy va ijtimoiy faollikni mustaqil va erkin fikr yuritish qobiliyatlarining shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu maqsad o'z navbatida bilim oluvchilarning faolligini oshirish, tanqidiy, ijodiy tafakkurini o'stirishga qaratilgan interaktiv ta'lim olishlariga ko'maklashuvch innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchida musiqiy xotira, tinglovchilik va ijrochilik didi musiqiy talaffuz va qiziqishlarinin tezroq shakllanishini ta'minlaydi. Chunki innovatsiyalar musiqiy ta'lim mazmuni sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki innovatsion texnologiyalar yangiliklar, tashabbuslar asosida tug'ilib, musiqiy ta'lim tizimi rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa mashg'ulotlarida muammoli o'qitish, modulli ta'lim, integratsiya yoki mujassamlashgan, differensial texnologiyalar va bahs-munozara, quynoqlar va zukkolar, suhbat, konsert, notanish musiqa muallifini o'zihg top, musiqa

orqali o'zingni tanit, viktorina darslari kabi noan'anaviy mashg'ulotlardan keng foydalanilmoqda. Bunday dars mashg'ulotlari quyidagilarni nazarda tutadi:

1. O'quvchilarning musiqiy ta'limga qiziqishlari va tashabbuskorliklarini oshirish.

2. Musiqiy did, bilimlarini yuksaltirish orqali o'quvchilarning milliy musiqaga befarq bo'lmasligi, erkin va mustaqil ijod etish ko'nikmalarini rivojlantirish.

3. Musiqa fani o'qituvchisi va o'quvchining ijodiy hamkorligini yo'lga qo'yish.

4. Har bir dars mavzusiga ijodiy yondashish his-tuyg'usini kuchaytirish va h.k

Ma'lumki, har bir o'quv predmeti, dars mavzusining o'ziga hos texnologiyasibo'lib, u bilim oluvchining talab va ehtiyojidan kelib chiqqan holda muayyan maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natijaga mo'ljallangan bo'lib, o'qitish texnologiyasining muayyan tarkibiy tuzulmasidan iborat. Bu tuzulma o'z mazmuniga ijtimoiy maqsadni, ta'lim yoki o'quv mavzusi maqsadini, mavzu mazmunini yoritishga yo'naltirilgan mashg'ulot shaklini, ma'lumotni yetkazish metodi, usuli, vositani o'qituvchi-o'quvchi faoliyati hamda yakuniy natijani qamrab oladi. Bu tuzulma o'quvchini mustaqil ishlashga, ijod qilishga kerak bo'lganda o'qituvchi yordamiga tayanib, u bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish lozimligini nazarda tutadi. Shunga ko'ra bunday innovatsion darslarni tashkil etishda o'qituvchi quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi kerak:

Dars maqsadi, vazifalarining aniq va pedagogi jihatdan to'g'ri bo'lishi.

1. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarining yaxlitligi, birligi uzviyligi.
2. Oquvchilarning bilish faolligi, mustaqilligi va tashabbuskorligini ta'minlaydigan metodlarni tanlash.
3. Mashg'ulotda o'quvchilarning ma'naviy va yangi tartibdagi ish shakllarini maqbul ravishda qo'shib olib berish.
4. O'qituvchining pedagog raxbarligi asosida o'quvchi faolligini aniq yo'lga qo'yish.
5. Oquv manbaalaridan foydalanish uchun yetarli shart-sharoit yaratish.
6. Oquvchilarning real o'quv imkoniyatlarini inobatga olib undan unumli foydalanish.
7. Darsda o'qitishning demokratik va insonparvarlik prinsiplariga amal qilish.

O'qituvchi o'quvchini musiqa darsi tizimini markaziga olib chiqmog'I lozim. Har bir dars mazmunini aniq maqsadni ko'zlagan holda loyihalashtirish zarur. Buning uchun musiqa o'qituvchisi bo'lajak darsining texnologik xaritasini oldindan tuzib chiqishi lozim. Bunda dars mavzusining hususiyati o'quvchilarning imkoniyati, o'zlashtirish darajasi inobatga olinmog'I lozim.

5-7 sinflarda o'quv tarbiya jarayonini tashkil qilishda musiqa darslarining boshqa fan darslari riga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bu hususiyatlar shuki xor

qo'shiqlarini o'rganishda o'quvchilar birgalikda kuylash mahoratiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning musiqa madaniyati darslariga jonli qiziqishini turli usublardan foydalanib saqlab qolish lozim. Bu uslublar sinfdan –sinfga o'tgan sari qiyinlashib, kengayib, chuqurlashib boradi va rivojlanuvchi ta'limning talablariga javob beradi. Masalan: o'qituvchining savollarni tariflashi qiyinlasha boradi, musiqiy asrlarni tahlili bo'yicha ular asta-sekin chuqurlasha boradi, darslarning materiallari hayot bilan yanada uzviy bog'lanadi. Ayniqsa 5-7 sinflar musiqa madaniyati darslarida muammoli ta'lim berish elementlari kiritilsa bu o'quvchilar oldiga tez-tez muammoli vaziyatlar yaratadi, bu muammolar 11-14 yoshli o'smirlarni faol fikrlashiga yordam beradi.

Qo'shiqlarni o'rganishda barcha sinflarda savol javob va etnik suxbatlar o'tkazish, asarning g'oyaviy- axloqiy mazmunini ochish o'quvchilarda hissiy ta'sirni kuchaytirishga, o'rganiladigan asarni hayot bilan bog'liqligini mustahkamlashga yordam beradi. O'quv jarayonida qo'shiq elementlarida, rasmi ya'ni asrga o'xshash suratlardan foydalanish, musiqa darslari bilan rasm fani o'ratsida uzviy aloqani shakllanishiga ko'maklashadi.

5-7 sinf o'quvchilarida o'qituvchilar jamiyatga, mehnatga, insonlarga, o'z-o'ziga axloqiy munosabatni tarbiyalovchi bu usublardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanishlari lozim.

5- sinf o'quvchilarida nutq madaniyati musiqa darslari oldiga yangi vazifalar qo'yadi. O'z navbatida bu vazifalar o'quvchilarning boshlang'ich sinflarda olgan bilim va malakalariga tayangan holda amalga oshiriladi.

5-sinfda o'rta ta'lim etapi boshlanadi. Bu davrda o'qituvchi uchun ma'lum qiyinchiliklar bor. Bu hol o'quvchilarning yosh xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. 11-12 yoshli bola organizmi kuchli rivojlana boshlaydi. Bu yoshda bolalar birmuncha ta'sirchan bo'ladilar. Shuning uchun ham 5-sinfda intizomni saqlash ancha qiyin bo'lib, bu hol insonning hissiyotiga ta'sir etadigan musiqa davrlarida yaqqol nomoyon bo'lishini biz o'z tajribamizda, ya'ni pedagogik amaliyot o'tash davrida bunga amin bo'ldik.

Bolalikdan o'smirlikka o'tish yoshida bolalar faollashadilar, kuch-quvvatlari o'sadi. Bolalarda did, havas va biror narsaga nisbatan qiziqish orta boshlaydi. 11-12 yoshga kelib bolalarning ovozi kuchayadi, yorqin va jaranglab chiqadi, tembrlari aniqlanadi, ovoz pardalari to'liq shakllangan bo'ladi. Bunda baland va past ovozlarning xarakterli xususiyatlarini ko'rish mumkin. Bu narsa qiziqarli qo'shiq repertuarini tanlash, ovozning yaxshi va ifodali jaranglanishiga erishish, shu bilan birga o'quvchilarni mazkur predmetga qiziqtirish, ularda havas uyog'otish imkonini beradi. O'qituvchining o'z obro'yiga ega bo'lishi ham katta ahamiyatga ega. Buning uchun musiqa madaniyati o'qituvchisi o'z kasbining fidoiysi, cholg'u asbobini yaxshi chala bilishi, qo'shiqlarni ifodali kuylay olishi, musiqa tarixi va nazariyasidan

keng bilish doirasiga ega bo'lishi, xalq musiqa ijodini, hamda o'zbek va jahon musiqa madaniyatini chuqur bilish va boshqa bir qator psixologik va pedagogik bilimlarni egallagan mutaxassis sifatida faoliyat olib borishi, musiqiy ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va bunday o'qituvchi bolalar hurmatiga sazovor bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflarda musiqa darsi butunlay yoki yetarli ma'lumoti bo'lmagan o'qituvchi tomonidan past saviyada o'tkaziladigan bo'lsa, u holda 5-sinfda musiqa o'qituvchisi yana bir qiyinchilikka duch keladi, ya'ni boshlang'ich sinflar musiqa dasturi to'liq o'tilmagan bo'ladi va bu holatni endi tuzatishga to'g'ri keladi.

O'rta bosqich sinf o'quvchilari hayotiy tajribalarini boyitgan aniq fanlarni o'rganish jarayonida ilmiy dunyoqarashlari shakllanayotganligi bilan xususiyatlanadi. Shunga ko'ra o'rganiladigan asarlar ham janr hajmi va badiiy mazmuni jihatidan jiddiylashib boradi.

5-sinf dasturini o'zlashtirish uchun o'qituvchi bolalarning umumiy musiqiy tayyorgarligi, bilim va malakalari doirasini aniqlaydi.

Ta'lim jarayonida quyidagilarga e'tibor beriladi: Predmet aro aloqa metodidan boshqa fanlardan olingan bilim va malakalardan foydalaniladi. Masalan: ona tili yozuvidan nota yozuvini o'rganishda, fol'klorni xalq musiqasi, shoir ijodini kompozitor ijodida, badiiy asardagi syujet obraziga taqqoslab, musiqa mohiyatini tushuntirishda qo'llash mumkin. Bunda san'at turlaridagi umumiylikni, ularning murakkab maqsadi – hayotni, voqeylikni insonlarning ichki dunyosini aks ettirishini tushuntiradi.

O'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, 5- sinfda musiqani idrok etish va ijro jarayonida musiqiy – eshituv tasavvurini davom ettiriladi.

Tezlashtirib o'qitish metodidan foydalanish, ya'ni 3-4 sinf dasturidan ko'proq musiqa xarakterini ifodalovchi xususiyatlar (registr, ritm, kuy, musiqa, kontrast) haqida umumiy tushunchalar hosil etish lozim. Bular aniq musiqa asarlari ishtirokida amalga oshiriladi. Asosan birinchi chorak davomida 5-sinf o'quvchilari ovoz diapazoni I ovozlar do-mi1- oktavadan fa2-oktavagacha, II ovoz si-lya1- oktavadan –do- re2- oktavagacha.

Bizga yaxshi ma'lumki, istiqloq sharofati bilan umuta'lim maktablarining barcha predmetlari bo'yicha, xususan, musiqa fanidan ham davr talablariga ko'ra, ya'ni dastur va musiqa darsliklari yaratildi. Ushbu dasturga ko'ra 5-sinfning yil mavzusi "Kompozitorlik musiqa janrlari" deb belgilangan. Chorak mavzulari esa quyidagicha:

1-chorak mavzusi: "O'zbek xalq cholg'u orkestri xor san'ati".

2- chorak mavzusi: "Simfonik orkestr Vokal simfonik asarlar".

3- chorak mavzusi: "Sahnaviy musiqa asarlari Raqs san'ati, Musiqali drama va komediya".

4- chorak mavzusi: "Opera san'ati". O'zbek musiqasida "Opera janri".

Keltirilgan mavzulardan ko‘rinadiki, o‘quvchilarga beriladigan bilimlar endi musiqa san’atining ancha jiddiy, murakkab, yirik hajmdagi asarlari asosida ularning idroki jarayonida amalga oshiriladi.

5- sinf o‘quvchilarini yosh xususiyatiga ko‘ra juda harakatchan, besabr bo‘ladilar. Shuning uchun ularda qo‘shiq kuylash mahoratini rivojlantirishda uzoq va davomiyli ishlash imkoniyati yetarli emas. Qo‘shiq o‘rganish jarayoni bolalar qiziqishini o‘stirish, ularda nutq madaniyati faolligini rivojlantirish va tashabbuskorlikni yuzaga keltirish, ish samarasini oshirishga xizmat qiladi.

Buning uchun o‘qituvchi qo‘shiqini avval o‘zi ifodali qilib ijro etib beradi (yoki gramyozuvda ko‘rsatadi) asarning yaratilish tarixi, qo‘shiq mualliflari ayrim xususiyatlari, hayotiy ahamiyatlari haqida qisqa bayon etadi.

Suhbat so‘zi bilan qo‘shiqning kayfiyati, obrazi doirasi, musiqa nutqi elementlarining ifodaviyligi, hamda ijro usullarini umumlashtiradi. Ba’zi qo‘shiqlar juda ham oddiy va qulay bo‘lganligi sababli, o‘qituvchi faqatgina ifodali ijrogina bilan cheklanishi mumkin. Mazmunan murakkabroq va harakatchan qo‘shiqlarda matnning o‘zini o‘qib berish mumkin yoki qo‘shiqning kuy ritmida alohida o‘rganish maqsadga muvofiq. Sekin, cho‘zib aytiladigan qo‘shiqlarda so‘zlarni alohida bir tekis kuylashni taqozo etadi. Kuyda epizodik tarzda uchraydigan sakramalar (S,5P,SI) katta va kichik sekundali tertsiyali harakatlar ritmik murakkabliklar hosil qiluvchi bir necha turdagi sinkopalarning uchrashi vokal ishlariga e’tibor va qunt talab etadi.

Intanatsion ritmik nutqni rivojlantirishdagi diksion qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

Asarning matnini kuysiz talaffuz qilib aytish.

Kuyni yuqori do pardalarini yengil harakatchan kuylash.

Jumlalar yakunlangan tovushlarni oxirigacha bir nafasda cho‘zib turish va keyingi jumlaning yangi nafasda yumshoq “ataka” bilan ohista boshlash.

Kuylash jarayonida albatta nota yozuvlaridan foydalanish, o‘quvchi tomonidan ko‘rsatiladigan drijyorlik ifolarining aniq va xarakterga mos bo‘lishi, qo‘shiqning sof ijrosini asosiy omillaridandir.

5-sinf o‘quvchilariga o‘rganish uchun “Oltin kuz qo‘shig’i”. Avaz Mansurov musiqasi, Normurod Narzullaev she’ri.

Bu qo‘shiqni o‘quv yilining birinchi choragida o‘rganish ko‘zda tutilgan. Kuzda viloyatimizning bog‘-rog‘laridagi meva chevalarni, dalalardagi paxta hosilini yig‘ib olish uchun qizg‘in kurash boradi. Qishloq xo‘jaligi mehnatkashlari, shaharliklar, o‘quvchi yoshlar

bu nozu ne'matlarni terib olishda fidokorlik namunalari ko'rsatadilar. Jamoatchilik mehnatining natijalari o'quvchilarda katta taassurot qoldiradi. Qo'shiqni o'ragnishga kirishayotganda 'o'qituvchi o'quvchilarga Kuzda tabiatda qanday o'zgarishlar ro'y beradi? Yilning bu faslida dehqonlar nima bilan shug'ullanadilar? degan savollar bilan murojaat qiladi.

O'quvchilar kuzda daraxtlarning barglari sarg'ayishi va to'kilishi, qushlar uzoq issiq o'lkalarga uchib ketishlari osmonning bulutligi tez-tez yomg'ir yog'ib turishi va sovuqning boshlanishi, dehqonlar meva va sabzavotlar hosilini yig'ib olishlari va O'zbekistonning asosiy boyligibo'lgan paxta terimi haqida gapiradilar.

Doskaga ko'rgazmali qurolida katta harflar bilan yozilgan qo'shiqning matni osib qo'yiladi. Shu yerda notalari ham beriladi. Nota belgilari paxta ko'sagiga o'xshatib ifodalangan, bu esa darsga o'ziga xos his – hayajon beradi va o'quvchilarga paxta yig'im-terimi bilan bog'liq bo'lgan hamma narsalarni eslatadi.

O'qituvchi qo'shiqning birinchi kupletini ifodali o'qib bergandan keyin, uni matnini o'quvchilar takrorlaydilar.

Ko'rkam o'lkam jamoli,
Shodlikdan quv nar yurak.
Esar mezon shamoli,
Kuzdan berib u darak.

Savol javob suhbatining borishida bu kupletning lug'aviy ma'nosini yoritib borib o'qituvchi o'quvchilarini yetib kelgan gavhar kuzda mezon shmolining esishini o'quvchilar tushuna boshlashlariga erishadi.

Keyin o'qituvchi qo'shiqning nahoratini o'qiydi.

Oltin kuzim, oltin kuz,
Xush kelibsan o'lkaga.
Baxt quyoshi charaqlab,
Oftob tegdi yelkamga.

O'qituvchi: Kuzda O'zbekistonimiz bog'larida nimalar pishadi.

O'quvchilar :Turli xil meva-chevalar.

O'qituvchi: Biz qo'shiqning birinchi kupletini va naqoratini o'qidik. Sizningcha qo'shiq qanday va qay kayfiyatda ijro etilishi kerak!

O'quvchilar: Quvnoq, nimaga deganda kuzgi hosilni yig'ib- terib olish hamma insonlarga katta quvonch bag'ishlaydi. Savol –javob suhbatidan so'ng o'qituvchi qo'shiqning 1- kupletini va naqoratini mamunali ijro etadi va bunda u o'quvchilar e'tiborini qo'shiq ohangiga, ritm va

tempiga qaratadi, chunki ular qo'shiqdagi har bir so'zning chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

Keyingi darsda qo'shiqning qolgan qismini o'rganish davom ettirilib, o'qituvchi qo'shiqni 2-kupletini ifodali o'qiydi.

Bog'da ter tokar bog'bon,
Hosilini teradi.
Dalada bobodehqon,
G'allasini o'radi.

Bu kupletni manosini tushuntirishda o'qituvchi matn mazmunini va musiqiy ifodani shunday yetkazib berishga harakat qiladiki o'quvchilar kuzda g'alla dalalarining butun go'zalligini yurakdan his qiladilar.

To'kin bo'lsa dasturxon,
Kuy-qo'shiq ham yarashar.
Bulbullar sho'x g'azalxon,
Tinch bo'stonda sayrashar.

Qo'shiqni ohangini o'zlashtirayotganda o'quychilar jamoa kuchini yaqqol tasavvur qiladilar, mehnat kishilariga hurmat tuyg'ularini chuqur his etadilar va ularda kattalar bilan birga kuzgi hosilni yig'ib-terib olishga qatnashish va bu bilan vatan boyligini oshirishga ishtiyoq tug'iladi.

Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Chunki pedagogik texnologiya va interfaol metodlar o'quvchi yoshlarni yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Quyida keltirilgan interfaol usullardan dars samaradorligini oshirish maqsadida musiqa madaniyati darslarida foydalanish mumkin.

“Pantomima” Hamma doira shaklida o'tiradi. O'qituvchi o'quvchilarga musiqa cholg'u asboblarining rasmlarini tarqatadi. O'quvchilarning vazifasi ushbu cholg'u asboblarida qanday holatda kuy ijro etilishini harakatlar bilan ko'rsatishdan iborat. Qolganlar esa, nazorat qilib, qaysi cholg'u asbobi ko'rsatilayotganligini topishlari kerak. Masalan: Rasmda doira asbobi berilgan bo'lsa, suratda o'tirgan holatda qo'l harakati bilan ko'rsatib beradi. Karnay, surnay, g'ijjak, rubob, dutor, fortepiano, cholg'u asboblari va hokazolar –mos qo'l xarakatlari bilan tasvirlanadi. Shunday qilib, 5-6 ta o'quvchining chiqishidan so'ng fikr-mulohazalar o'rganiladi. “Marhamat, davom ettiring” Takrorlash darslari uchun.

Sinf ikki guruhga bo'linadi. O'tilgan qo'shiqlardan birini 1-guruh boshlab beradi, 1 kupletdan kuylanadi. 2-guruh, davom etadi. G'olib guruh 2- qo'shiqni ham tanlab ijro etadi. 3 ta qo'shiqdan so'ng g'olib guruh aniqlanadi.

“Bilag‘onlar ko‘chasi” usuli. Bu yerda har bir guruhga bastakorlarning portretlari ko‘rsatiladi. O‘quvchilar bastakorlarning hayoti, faoliyati, qo‘shiqlaridan parcha, yozgan qo‘shiq, kuy, asarlarining nomini aytib berishlari kerak.

“Mahorat ko‘chasi”. Bu yerda har bir guruh huquqiy mavzudagi, xususan adolat, haqiqat, odillik, vatanparvarlik, insonparvarlik, diyonat, vijdon haqidagi tuyg‘ular haqidagi yoki ayollarga mos bahor fasli qo‘shiqlarini, mehrjon qo‘shiqlari, yangi yil to‘g‘risidagi qo‘shiqlarni kuylashi mumkin.

O‘quvchilarga uch xil kartochka tarqatiladi. Bu kartochkalarda o‘quvchilar bilgan qo‘shiqlar nomi yozilgan. Har bir qo‘shiqdan parcha tinglab, ushbu suratga mos kuylarni yoki qo‘shiqlarni eslab, uning ta‘rifi va mazmuni ochib beriladi. Qaysi guruh tez va chaqqon dalillar keltirsa va davomini kuylab bersa, shu guruh g‘olib hisoblanadi.

12-13 yoshli 6 –sinf o‘quvchilarida o‘spirinlik davri boshlanib, ular tabiat va hayot qonunlariga jiddiy qiziqqa boshlaydilar. Organizmda psixologik, fiziologik jihatdan faol o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bo‘yning o‘sishi, buning natijasida bosh miya ba‘zan yetarli darajada ozuqa ololmay, horg‘inlik kasalligi sezilishi kabilar ro‘y beradi. O‘smirlar o‘zlarini katta kishi qilib ko‘rsatishga urinadilar. Shuning uchun kattalarning munosabatiga jiddiy e‘tibor beradilar, ular bilan muommalada bo‘lishni istaydilar. Bu davrda o‘qituvchi sinfdagi har bir o‘quvchini yaxshi o‘rganishi, e‘tiborli bo‘lishi, ular bilan to‘g‘ri, jiddiy va do‘stona munosabatda ish olib borishi lozim. Bolalarda mutatsiya, “rasta”-ovozning o‘zgarishi davri boshlanadi. Ovoz apparati ham o‘smir organizmida kechayotgan jismoniy, psixologik o‘zgarishlar singari bolalikdan kattalik yoshiga o‘tish jarayoniga yuz tutadi. Mutatsiya davrigacha o‘g‘il va qiz bolalarda ovoz apparatining tuzilishi o‘xshash bo‘lib, mutatsiya davrida ular bir-biridan farqli ajraladilar. O‘g‘il bolalarda tomoq bir yarim, ikki marta o‘sadi, ovoz paylari yo‘g‘onlashadi, qiz bolalarda esa, 1/3 hissa o‘sadi. Natijada o‘g‘il bolalarda ovoz registr jihatidan 1 oktava registriga o‘tadi. Qiz bolalarda esa, registr o‘z o‘rnida qolib, ovoz kuchi, tembri va mayinligini saqlab qoladi. Mutatsiya davrida jismoniy o‘sish ham ravonligini yo‘qotib, notekis rivojlana boshlaydi. Ovoz o‘z jarangdorligini yo‘qotadi “xunuklashadi”. Hamma diapazonlarda erkin kuylayotgan o‘quvchi endi yuqori tovushlarni ololmaydi, zo‘riqish bilan baqirgannamo kuylaydi. O‘g‘il bolalar tomog‘ida ovoz boylamlari yo‘g‘onlashadi, qizaradi qirg‘oqlarida shish paydo bo‘ladi, kuylash jarayonida tez charchash kuzatiladi. Shuning uchun bu davrda kuylash faoliyatini tashkil etishda o‘quvchidan katta mas‘uliyat talab etiladi. Tanlangan qo‘shiq materiallari o‘quvchilarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi, ish usullari bolalar ovozini asrash talablariga javob berishi lozim. Buning uchun bolalar ovozini aniq partiyalarda kuylatish muhimdir. Bu davrda o‘qituvchining asosiy vazifalari quyidagilar: Bolalarning musiqa san‘atiga, musiqa darsiga bo‘lgan

munosabatini har tomonlama o'rganib, hisobga olish; Musiqaning hayot bilan chambarchas bog'liqligi, hayotning badiiy aksi ekanligi haqidagi bolalar tasavvurini yanada kengaytirish; Har bir o'quvchiga alohida e'tibor qaratishga intilish, uni psixo- fiziologik jihatidan o'rganish, mutatsiyaning boshlanish davri individual tarzda ekanligini hisobga olib, ovoz pardalarini belgilash, ishchi diapazonlarini toliqtirmaslik lozim .

6-sinf musiqa madaniyati dasturiga 20 ta qo'shiq asari kiritilgan. Ularning aksariyati o'quvchilarda vatanparvarlik ruhini, o'z vatani tarixidan mag'rurlanish, kelajak ravnaqi uchun xizmat qilishga da'vat, his-tuyg'ularni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunday qo'shiqlarga "O'zbekiston madhiyasi" (M.Burhonov) musiqasi, "Yoshlar ramziy qo'shig'i", "Istiqlolim"(A.Mansurov musiqasi), "Yurtim kamoli" (N.Norxo'jayev), "Gulshan diyor-O'zbekiston" (SH.Ramazonov), "Biz tinchlikni istaymiz" (K.Kenjayeov) asarlarini misol keltirish mumkin.

6-sinfda o'rganish uchun "O'zbekimdan aylanay" qo'shig'i. Gulnora Qo'chqorova musiqasi, Dildora A'zamova she'ri.

O'qituvchi qo'shiq bandlarini o'quvchilarga o'qishni bo'lib berib, intonatsion xatolarini tuzatishni, qo'shiqni mazmuni va g'oyasini aniqlashni o'quvchilar o'zlari amalga oshiradilar. Doskaga katta harflar bilan yozilgan qo'shiq teksti notalari bilan osib qo'yiladi va o'quvchilar ishni boshlaydilar.

Quchog'ingda yayrab o'sarman, yurtim,

Tarixihgdir buyuk, ey ozod yurtim.

Jahonga yuz tutdihg, mag'rursan, elim,

O'zbekimsan, o'zligimsan, o'zbekim.

O'quvchilar bu kupletda jonajon O'zbekistonimizning tarixi buyuk , ozod va mag'rur yurt ekanligi haqida gapirilganini ahglab etadilar. So'hgra boshqa bir o'quvchi naqoratni ifodali o'qiydi.

O'zim aylanay, o'zim ,o'rgilay

O'zbekimsan, o'zligimsan, o'zim aylanay.

O'zim aylanay, o'zim o'rgilay,

Yurtboshim ulug'lagan o'zbekimsan-ey!

Naqoratni o'qilish sifati baholangandan keyin, o'qituvchi suhbatni davom ettiradi:

O'zbekistonimiz insonlarni qanday siylaydi?

O'zbekistonimiz hammani tehg siylaydi.

Vatanimiz chiroyi qanday?

Vatanimiz chiroyi kundan-kunga ochilib, bog' u-rog'lari shahar va qishloqlari kundan-kunga gullab yashnamoqda.

O'qituvchi: Endi ikkinchi bandni o'qihg:

Ajdodlarim ruhi bo'ldi madadkor,
Asrlar ohsa ham ular mangu yor.
To'maris, Uvaysiy, Nodirabegim,
Momolarim ulug'lagan o'zbekim.

O'quvchilarni bu misralarni muhokama qilishga jalb qilib o'qituvchi ulug' ajdodlarimizning ruhi bizga madadkor ekanligini ta'kidlaydi.

Qo'shiqning oxirgi bandi o'qiladi:

Yurtimda balanddir mening iqbolim,
Madhihgni kuylamoq orzu, xayolim.
Senga sodiq, komil ezgu tilagim,
Farzandlarimg ulug'lagan o'zbekim.

Savol-javob, suhbat davomida qo'shiqning yakuniy kupletini tahlil qila turib o'qituvchi o'quvchilarga butun tekst mazmunini eslashni va bu asar g'oyasini kehgroq ifodalab berishga urinishlarini taklif qiladi.

7-sinf musiqa madaniyati darsini o'tilishining oxirgi sinfi hisoblanadi. Shuning uchun bu sinf dasturiga ko'proq mumtoz o'zbek qo'shiqlari, ya'ni maqomlarga keng o'rin berilgan. Bu sinfda I chorak yil mavzusi Surxandaryo –Qashqadaryo, Samarqand-Buxoro vohalarining musiqiy uslublari, II chorak Farg'ona – Toshkent va Xorazm vohalarining musiqiy uslublari, III chorak Shashmaqom, IV chorak Xorazm maqomlari, Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari deb nomlangan. Shular bilan birgalikda, o'zbek bolalar kompozitorlari yaratgan zamonaviy asarlarga ham keng o'rin berilgan.

7- sinf dasturida jami 50 ta qo'shiq kiritilgan. Shulardan 30 ga yaqini milliy mumtoz qo'shiqlarimiz, ya'ni maqomlardan iborat. Bular "Ey nozanin", "Mavrigi", "Savti suora I", "Savti kalon soqiynomasi", "Mustahzoda navo soqiynomasi", "Mug'ulchai dugoh soqiynomasi", "Sarahbori segoh", "Nasrulloi" (buzruk maqomidan), "Savti kalon soqiynomasi", "Mustahzoda navo soqiynomasi", "Mug'ulchai dugoh soqiynomasi", "Feruz", "Nasrullo I", "Dugoh", "Dugoh Husayn IV" (tarona), "Dugoh Husayn I", "Chorgoh IV", "Ushshoq", "Savti kalon uforisi" va "Iroq uforisi" kabilardir. Bu qo'shiqlarni o'rganish orqali yuqori sinf o'quvchilarining ifodali kuylash malakalari shakllarishni yanasda takomillashtirish, xalq musiqa madaniyatini chuqur o'rganish, uning asosida milliy va

zamonaviy musiqa tafakkurini rivojlantirish maqsadida folklor va maqom, vokal ansambllariga o'quvchilarni jalb etishni ahamiyati katta.

7-sinf o'quvchilariga o'rganush uchun "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi". Mutal Burxonov musiqasi, Abdulla Oripov she'ri.

Bu qo'shiq 7- sinf o'quvchilarida ona vatanimizga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash, O'zbekistonimizning o'ziga xos chiroyini, go'zalligini tushunishga yordam beradi. Madhiya kuyini muhokama qilayotganda o'quvchilar uni tekst bilan aloqasini yurakdan his qilib o'zlashtirishlari uchun o'qituvchi kuy qismlarini bir necha bor fortepiano yoki rubobda ijro etadi. Madhiyaning kuyi mardonavor yahgrashi lozim. Madhiyada serquyosh diyorumizning bog'lari va dalalarining chiroyi, o'lkamizda istiqlol sharofati bilan ilmu-fanning rivojlanib ketishi ta'kidlab o'tiladi. Madhiya haqidagi suhbat O'zbekiston gerbining surati solingan ko'rgazmali qurolni namoyish qilish bilan birga olib boriladi. Bunda o'quvchilarning badiiy didi va Vatanimizga bo'lgan hurmat tuyg'ulari shakllanadi.

Fan-texnikaning taraqqiyoti information va innovatsion texnologiyalar, ijodiy qobiliyat va tafakkurlarini rivojlanishiga kehg imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri, ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch talab etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Buning uchun quyidagilarni e'tiborga olib, faoliyat ko'rsatmoq lozim:

-Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan xabardor bo'lish.

-Pedagogik va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq eta olish.

"Skarabey"-Interaktiv texnologiya bo'lib, o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baxolash, o'rgatilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

"Sakarabey" texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi. Chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xsusiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalgam oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

"Skarabey" interaktiv texnologiya bo'lib, o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin fikrlash ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda

bilimning sifati va saviyasini xolis, baholash, o'rgatlayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi.

Skarabey usuli:

O'tilgan mavzularni takrorlab, mustahkamlash. Ikki guruhda ishlash.

O'quvchilarga kartochkalar tarqatiladi. Ularda bir nechta asarlar nomi yozilgan. Har bir guruh bir-biriga kartochkalarda yozilgan asar nomini aytmasdan, kuylab yoki cholg'u asbobida chalib, qo'l harakatlari bilan ko'rsatib beradilar. Guruhlar asar nomini topib, davom ettirishlari kerak. Asarlar nomini ko'proq to'g'ri topgan, ko'rsatgan, ijro etgan guruxlar g'olib, deb sanaladi.

O'YIN QOIDASI

1-Guruh

Andijon polkasi

Yallama yorim

Ey mehribonim

Ey sabo

2-Guruh

Bulbulcham

Qor

Dilxiroj

Qo'sh chinor

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqa madaniyati darsida interfaol metodlardan foydalanilsa, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlari ortadi va faollashadi. Mazkur metod hamkorlikda ishlash vositasida dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

II.3. Tajriba – sinov natijalarini aniqlash

Nafosat tarbiyasi musiqa tarbiyasini o'zida mujassamlashtirgan va pedagogikaning qator tarbiya yo'nalishlari- aqliy, jismoniy, sensor, mehnat va iqtisodiy tarbiya yo'nalishlari kabi ta'lim tarbiyada katta o'ringa ega. Ta'limda birgina estetik tarbiya berish barobarida boshqa tarbiya yo'nalishlari bo'yicha ham ish olib borish imkoniyatlari ham mavjuddir. Masalan: qo'shiq kuylash nafosat tarbiyasiga kiradi, lekin qo'shiqning so'zlari orqali aqliy tarbiya beriladi. Yoki raqs harakatlari orqali o'rganayotgan va o'rgatayotgan kishilar ham estetik, ham ruhiy, ham jismonan tarbiyalanishadi. Yohud katta hajmli musiqa janri bo'yicha asar tayyorlash ba'zan yillab muddatga cho'zilishi mumkin. Bu orqali esa ham estetik, ham mehnat tarbiyasi amalgam oshiradi.

Musiqa madaniyati darslarida bir nechta interfaol usullardan foydalanib, an'anaviy dars turlari bilan o'quvchilarni qiziqtirish yo'llari, ularni musiqaqa mehr uyg'otish uchun bir nechta dars ishlanmalaridan foydalanish mumkin. Bulardan "Kim ko'p biladi" usuli bo'lib, bunda musiqa tinglash faoliyatining rivojlanishiga yaxshi natijalar beradi. Bu usulda o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan bir nechta kuy ijro etilib, ularni ritmi, sanog'i, muallifi haqida ma'lumot berishlarini, har bir o'quvchi guruhlariga bo'linib, bu muammoli vaziyatni tez va qisqa fursatda topib, javoblar yozilgan qog'ozlarni o'qituvchiga topshiradilar. Qaysi guruh tez va savollarga to'g'ri javob bergan bo'lsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

Bu usuldan tashqari yana "Nimaga va nima uchun" usuli bo'lib, bu ko'proq musiqa savodi faoliyatining rivojlantirishda yordam beradi. O'qituvchi bir hajmdagi karton qog'ozlarga bittadan qirqta qisqa va aniq savollar yozib chiqadi. Savollar "nimaga va nima uchun" tamoyiliga moslab tuziladi. Masalan: Sol kaliti haqida ma'lumot bering? Butun nota, yarim nota orasidagi farqlar, sanog'i haqida ma'lumot bering? Balet deganda nimani tushunasiz? Va shu kabi savollar tuzilib, usulni qo'llashdan avval barcha varaqlar yig'ib olinib, aralashtiriladi va teskari qilib qo'yib chiqiladi. O'quvchilar birin-ketin varaqa tortib savolga javob beradilar. Agar savolga javob berilmasa, uni o'quvchi qaytib joyiga qo'yadi. To'g'ri javob bergan o'quvchi varaqani o'zida saqlab qoladi. Eng ko'p varaqa to'plagan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

Bu usullar musiqa madaniyati darslarida samarali natijalar beradi.

“Musiqi madaniyati” darslarida musiqiy bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash, asar muallifi, boshqa yozgan asarlari haqida aytib o‘tiladi, lekin bu berilgan bilimlarni o‘zlashtira olishmaydi, biz choraklar bo‘yicha taqsimlangan mavzular bo‘yicha ikkita sinfda tadqiqot ishlarini olib bordik. 7-“a” va 7-“b” ni eksperimental sinf qilib oldik. 7-“a” sinfda chorak bo‘yicha berilgan mavzularni tushuntirib, doimiy holda dars o‘tdik, lekin 7-“b” sinfda xuddi shu o‘tilgan mavzular bo‘yicha chuqur bilim berildi, ya’ni o‘quvchilar guruhlariga bo‘linib, o‘tilgan mavzu yuzasidan o‘qituvchi tomonidan savol tashlandi. Guruhga bo‘lingan o‘quvchilar o‘z fikrlarini mustaqil bayon etishdi, to‘g‘ri javob tanlab olindi, g‘olib guruh rag‘batlantirildi. Berilgan bilimlarni chorak yakunida savollar test nazorati, yozma ish nazorati, ritmik diktantlar, ijro yo‘llari bo‘yicha savol-javob qilinib, ikkala sinfdan imtihon tarzida olindi. Olingan natijalar quyidagi ko‘rsatkichda ekanligini ko‘rsatdi.

Yuqori daraja. Musiqa ta’limi orqali go‘zallikni idrok eta olishi, zavqlanishi, uning insoniy fazilatlariga ta’sirini belgilovchi cholg‘u sozi, qo‘shiqlari va dostonlari haqida xabardor.

O‘rta daraja Yuqorida bayon qilingan mavzulardan to‘liq xabardor bo‘lmasada, ma’lum tushunchalarga ega bo‘lgan o‘quvchilar.

Past daraja. Musiqa ta’limi haqida deyarli ma’lumotga ega bo‘lmagan o‘quvchilar.

Anketa savollariga olingan javoblarning qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida eksperimental sinf va nazorat sinfi o‘quvchilarining bergan javoblarini quyidagi jadval asosida aniqladik.

1-jadval

№	Sinflar yo‘nalishi	O‘quvchilar soni	Javob darajalari	Anketa savollariga javoblar							
				1	2	3	4	5	6	7	8
1	Tajriba sinfi	26	Yuqori	20	20	18	19	19	18	20	19
			O‘rtacha	3	4	6	5	5	5	4	4
			Past	3	2	2	2	2	3	2	3
			Jami	26	26	26	26	26	26	26	26
2	Nazorat sinfi	26	Yuqori	12	14	14	12	12	13	14	14
			O‘rtacha	8	5	4	5	6	4	4	5
			Past	6	7	8	9	8	9	8	7
			Jami	26	26	26	26	26	26	26	26

Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, biz ish olib borgan tajriba sinfida o‘quvchilarning musiqiy madaniyat haqidagi bilim, tushuncha va ko‘nikmalari nazorat sinfiga nisbatan anchagina yuqori.

Xususan, yuqori darajada javob berganlarni bir-birlariga solishtirib ko‘rganimizda, bu ikki sinf o‘quvchilari orasidagi tafovvt yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Dars jarayonida o‘quvchilar fikrini ma’lum mavzu yo‘nalishiga qaratish va turli shakl va uslublardan foydalanish yaxshi natija beradi.

2-jadval

№	Sinflar yo‘nalishi	O‘quvchilar soni	Javob darajalari	Anketa savollariga javoblar							
				1	2	3	4	5	6	7	8
1	Tajriba sinfi	26	Yuqori	20	20	18	19	19	18	20	19
2	Nazorat sinf	26	Yuqori daraja	12	14	14	12	12	13	14	14
3	Oradagi farq	26	Yuqori daraja	8	6	4	7	7	5	6	5

Eksperemental sinfda yuqori darajada javob bergan o‘quvchilar soni 18 tadan 20 tagacha bo‘lgani holda, nazorat sinfidagi bu ko‘rsatkich 12 tadan 15 tagacha bo‘lgan. Taqqoslash natijasida tajriba sinfida yuqori darajadagi o‘quvchilar soni 4 tadan 8 tagacha farq qilishi aniqlandi. Shundan kelib chiqqan holda olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarimiz nazorat sinfiga nisbatan unumliroq bo‘ldi.

Darslar jarayonida o‘quvchilar fikrini ma’lum mavzu yo‘nalishga qaratish va turli shakl va usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Tadqiqot nihoyasida tajriba guruhi o‘quvchilari bilan nazorat savollari bo‘yicha anketa o‘tkazilganda, ularning dunyoqarashlari, musiqa folklori haqidagi qarashlari ijobiy tomonga o‘zgarganligiga guvoh bo‘ldik. Mahsus dars o‘tish metodikasi va uning mazmunidan kelib chiqib, tajriba –sinov ishlarida qatnashgan o‘quvchilarning zamonaviy qo‘shiqlardan foydalanish ko‘nikmasi, ijro uslubi va mahorati, hamda shular vositasida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llanilishi orqali ularning estetik tarbiyalanganlik darajalarini asoslovchi tajriba jarayonida ular tomonidan qayd qilingan ko‘rsatkichlarga nisbatan ijobiy o‘sish ro‘y berganligi aniqlandi. Bu boradagi holat tadqiqot nihoyasida tajriba – sinov ishlarining muvofaqiyatli kechganligi tadqiqot ishining pedagogik va ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilganligi va samarali bo‘lganligidan dalolat beradi.

X U L O S A

Yosh avlodni yuksak madaniyatli insonlar qilib tarbiyalashda musiqa ta'limining ahamiyati beqiyosdir. Xususan o'zbek zamonaviy musiqasi bu borada katta imkoniyatlarga ega.

Malakaviy ishimizda ko'rib chiqilgan pedagogik amaliyot jarayonida ish olib borgan zamonaviy qo'shiqlarimiz umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslari dasturiga kiritilgan. Biz o'z faoliyatimizda bu qo'shiqlarning ko'pini bolalar bilan kuyladik, tahlil qildik. Qo'shiqlarda aks etgan hissiy obrazlarni his etishlariga ko'maklashdik. Qo'shiqlarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi sifatlarini o'rganishga harakat qildik.

Biz o'z bitiruv malakaviy ishimizni yangi dasturning asosiy mohiyati va unga qo'yilgan talablar asosida yoritishga harakat qildik.

Tadqiqotimizning nazariy va tajriba – sinov qismida olib borgan kuzatishlarimiz va ilmiy manbaalardan keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish natijalariga tayanib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Musiqa darsi jarayonida jamoa bo'lib kuylash san'ti qoidalariga rioya qilish, o'quvchilarda estetik tarbiyani shakllantirishda yaxshi ta'sir etadi.

2..Musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy uquv, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur kabi tushunchalarni muntazam rivojlantirib borish, o'quvchilarni zamonaviy qo'shiqlarni ifodali kuylash faoliyatini oshirishda ijobiy yordam beradi.

3.Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayonida tadbiq qilish orqali o'quvchilarni zamonaviy kuy va qo'shiqlarni sof va ifodali ijro etish malakalarini rivojlantirishga erishildi.

4. O'quvchilarni zamonaviy bolalar qo'shiqlarini mahorat bilan kuylash faolligini oshirishda kuylashni rivojlantirishning samarali uslublarini qo'llash orqali erishish mumkinligi tasdiqlandi.

Bitiruv malakaviy ishimizda erishilgan samarali natijalardan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-7 sinf musiqa madaniyati darslarida talabalarning musiqiy pedagogik amaliyotlarida, pedagogik kollejlarning musiqa bo'limi mashg'ulotlarida qo'shimcha manbaa sifatida foydalanish mumkin. Bugungi kundagi yosh avlod bir turdagi asarlar bilan chegaralanishini hohlamaydi. U ona –Vatan, maktab, mustaqillik, O'zbekiston haqidagi y'uksak manodagi qo'shiqlar bilan bir qatorda inson qalbining noziq his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, do'stlik, go'zallikka intilish, voqeylikka munosabat bildiruvchi zamonavuy asarlarni ham jonu-dili bilan ijro etishni hohlaydi va bunga intiladi. Biz bo'lajak ustozlar bola ma'naviyatiga, madaniyatiga, qolaversa diliga ta'sir etuvchi bunday qo'shiqlarni mahorat bilan kuylashga o'rgatishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. O'zbekiston-2011
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz –vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent “O'zbekiston” -2010 yil
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. “Ma'naviyat” 2008 yil 141-bet.
4. Karimov I.A. Vatan va xalq mangu qoladi: (Hikmatli so'zlar va iboralar to'plami) Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2010 yil.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidir. Toshkent “O'zbekiston” 2010 yil
6. Begmatov S, Mamirov Q, Mansurov A, Karimova D, Ro'ziyev I. 6-sinf uchun darslik. G'.G'ulom nomidagi “Adabiyot va san'at” nashriyoti. Toshkent 2001 yil.
7. Ibrohimov O, Sadirov J 7-sinf uchun darslik. G'.G'ulom nomidagi “Adabiyot va san'at” nashriyoti. Toshkent 2005 yil.
8. Ibrohimov O O'zbek xalq musiqa ijodi (metodik tavsiyalar) 1-qism Toshkent 1994 yil.
9. Ismoilova M.E. “Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini shakllantirish” 1-7 sinf musiqa madaniyati darslari uchun o'quv metodik qo'llanma. Toshkent. “Istiqlol” nashriyoti. 2006 yil
10. Ismoilova M.E. “Vokal o'qitish metodikasi” Oliy va o'rta – maxsus musiqiy ta'lim talablari uchun o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent “Musiqqa” nashriyoti. 2011 yil

11. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent-2008 yil.
12. Ishmuhamedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Toshkent-2010 yil.
13. Mamirov Q. Jamoa qo'shiqchiligi va amaliyoti. Toshkent. "Ilm ziyo"-2012 yil.
14. Mansurov A, Karimova D. Musiqa 5- sinf uchun darslik. G'.G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti. Toshkent 2004 yil.
15. Musiqa ta'limi va tarbiya birligi (ilmiy, metodik maqollar to'plami). Toshkent 1996 yil
16. Omonullayeva D. "Umumiy ta'lim maktablarida musiqa ta'lim-tarbiyasi konsepsiyasi" Toshkent 1992 yil.
17. San'at yo'nalishlarida yoshlarni ma'naviy- axloqiy tarbiyalash: izlanish, echim va istiqbollar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami 24-25 mart Buxoro-2013 yil.
18. Tursunov R. Xalq musiqa ijodiyoti va amaliyoti. Toshkent. "Ma'rifat-madadkor" nashriyoti. 2002 yil.
19. Qodirov R. Boshlang'ich maktabda ko'povozli kuylash. Toshkent. "O'qituvchi" 1997 yil
20. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi. Musiqa "Sharq" nashriyoti-matbaa konserni. 1999 yil 6-maxsus son.
21. Umumta'lim maktablari musiqa darslari dasturi. Toshkent 1992 yil.
22. O'zbekiston – Vatanim manim. Birinchi kitob. Toshkent 1996 yil
23. O'zbekiston – Vatanim manim. Ikkinchi kitob. Toshkent "Mehnat" 1997 yil
24. O'zbekiston – Vatanim manim. Uchinchi kitob. Toshkent 1998 yil
25. O'zbekiston – Vatanim manim. To'rtinchi kitob. Toshkent "G'.G'ulom" 2000 yil
26. Fayziyev O. O'zbekiston maktablarida musiqiy nafosat tarbiyasini tashkil etish bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent 1992 yil.
27. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi (ma'ruzalar matni) Toshkent 2008 yil
28. Yuldasheva N., Raxmatova N. O'zbek musiqa adabiyoti. Toshkent. "Iqtisod- moliya" 2010 yil.

ILOVALAR

AZIZ USTOZLAR

Sobir Boboyev musiqasi

To'liqin she'ri

Mayin

Do -im a -ziz hur -ma -tin -giz, U -nut -may -miz
meh -na -tin -giz. Jo -na -jon -lar, meh -ri -bon -lar,
A -ziz, a -ziz us -toz -lar. us -toz -lar.
Bo - shi -miz -ni si -la -din -giz, Biz -ga oq yo'l
ti -la -din -giz. Jo -na -jon -lar, meh -ri -bon -lar.
A -ziz us -toz lar. lar.

Doim aziz hurmatingiz,
Unutmaymiz mehnatingiz.

Naqarot:

Jonajonlar, mehribonlar,
Aziz ustozlar.

Boshimizni siladingiz,
Bizga oq yo'l tiladingiz.

Naqarot:

Sizlar bizning baxtimizsiz,
Dillardagi axtimizsiz.

Naqarot:

Sizga izzat, sizga hurmat,
Yosh qalblarda bo'ling har vaqt.



Naqarot:

BUVIJONIM

Yu. Suyunov she'ri

D. Omonullayeva musiqasi

Shoshmasdan, quvnoq



Ko'rolmasa bir kuni

Uxlay olmaydi tuni.

Ko'ngli sog'inchga to'lib,

Izlar parvona bo'lib.

N a q a r o t :

Buvijonim, buvijon,

Mehribonim buvijon.

Onaginam onasi

Sho'x zabonim buvijon!

Baxtinga omon yuring,

Xushxandon davron suring.

Ko'zingiz namlanmasin,

Dilingiz g'amlanmasin.

N a q a r o t

O'ZBEGIMDAN AYLANAY

Dildora A'zamova she'ri

Gulnora Qo'chqorova musiqasi

Qu - cho-g'ing-da yay - rab o' - sar - man yur - tim.

Ta - ri - xing-dir bu - yuk ey, o - zod xal - qim.

Ja - hon - ga yuz tut - ding mag' - rur - san e - lim.

O'z - be - gim-san o'z - li - gim-san o'z - be - gim!

O' - zim ay - la - nay, o' - zim o'r - gi - lay.

O'z-be - gim-san, o'z - li - gim-san o' - zim ay - la - nay.

O' - zim ay - la - nay, o' - zim o'r - gi - lay.

Yurt bo-shim u - lug' - la - gan o'z-be - gim-san ey.

Quchog'ingda yayrab o'sarman, yurtim,
Tarixingdir buyuk, ey ozod xalqim.
Jahonga yuz tutding, mag'rursan, elim,
O'zbekimsan, o'zligimsan, o'zbekim!

N a q a r o t :

O'zim aylanay, o'zim o'rgilay,
O'zbekimsan, o'zligimsan, o'zim aylanay.
O'zim aylanay, o'zim o'rgilay,
Yurtboshim ulug'lagan o'zbekimsan-ey!

Ajdodlarim ruhi bo'ldi madadkor,
Asrlar oshsa ham ular mangu yor.
To'maris, Uvaysiy, Nodirabegim,
Momolarim ulug'lagan o'zbekim.

N a q a r o t :

Yurtimda balanddir mening iqbolim,
Madhingni kuylamoq orzu, xayolim.
Senga sodiq, komil ezgu tilagim,
Farzandlaring ulug'lagan o'zbekim.

N a q a r o t :

KO'YLAGIM

P.Mo'min she'ri

Fattoh Nazarov musiqasi

O'rtacha tez



Yan-gi ko'y- lak tik-di- lar a- ya- jo- nim bay-ram- ga.



Se- vin- chim- ga sig'- ma- yin rah -mat de- dim



a- yam- ga. Ko'y- la- gim, ho, ko'y- la- gim,



kiy- sam ke- lar o'y-na- gim.



Yakkaxon; *Hamma;*

O'z- be- kis- ton! O'z- be- kis- ton!

Yakkaxon;

E- lim deb, yur- tim deb yo- nib ya- shay- miz!

Hamma; *rit.*

E- lim deb, yur- tim deb yo- nib ya- shay- miz!

E lim deb, yurtim deb
 Yonib yashaymiz!
 Turon yurt chamanin
 Biz gulgunlari!
 Navqiron avlodi,
 Sho'x bulbullari!
 Yurt obod!
 El obod!
 Parvozingga qanotmiz!
 O'zbekiston!, O'zbekiston!
 E lim deb, yurtim deb
 Yonib yashaymiz!

VATANJONIM – VATANIM

Po'lat Mo'min she'ri

Dilorom Omonullayeva musiqasi

O'rtacha tez



Va- tan- jo- nim- Va- ta- nim, Ko'- zim quv- nab



ko'- ga- nim. Is- tiq- lol- dan kul- ga- nim,



O'-z- be- kis- ton - gul- sha- nim!

Vatanjonim – Vatanim,
Ko'zim quvnab ko'rganim.
Istiqloldan kulganim,
O'zbekiston – gulshanim!

Bahra olib bag'ringdan,
Ulg'ayaman mehringdan.
Vatanjonim – Vatanim,
O'zbekiston – gulshanim!



QOR

Zulfiya she'ri

Shermat Yormatov musiqasi

Tez



Ol-cha gu-li bar-gi day O'y-nab u-chib
yo-g'ar qor. A-jab qor-ga qa-ray-man,
ko'-zim-da yash-nar ba-hor. A-jab qor-ga
qa-ray-man, ko'-zim-da yash-nar ba-hor.



ISTIQLOLIM

Po'lat Mo'min she'ri

Avaz Mansurov musiqasi

O'rtacha tez

Is-tiq - lo - lim, is - tiq - lo - lim, Ku-lib tur - gan.
Baxt mi-so - lim. Is - tiq - lo - lim, is - tiq - lo - lim.
Yax-shi-lik - dir o'y ha - yo - lim, Is-tiq - lo - lim,
is - tiq - lo - lim.
O... O... O...
O... O...
O' y xa - yo - lim.
Til - da bo - lim.
Is - tiq lo - lim. Ey.

Istiqlohim – istiqlohim,
Kulib turgan baxt misolim.

Istiqlohim – istiqlohim,
Yaxshilikdir o‘y-xayolim.

Istiqlohim – o‘y-xayolim.

Istiqlohim–istiqlohim,
So‘zlashganda tilda bolim.

Istiqlohim–istiqlohim,
Yegan nonim eng halolim.

Istiqlohim–tilda bolim.

Istiqlohim–istiqlohim,
O‘zgalarga yo‘q malolim.

Istiqlohim–istiqlohim,
Yaxshilikdir o‘y-xayolim.

Istiqlohim–o‘y-xayolim.

Istiqlohim–istiqlohim,
Barq urmoqda gul, niholim.

Istiqlohim–istiqlohim,
O‘zbekiston o‘z iqbolim.

Istiqlohim–o‘z iqbolim.

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika psixologiya fakulteti

5141000 Milliy ta'lim ta'lim yo'nalishi

talaba Gulmurodov Gulnoz Ilashovna ning malakaviy bitiruv ishiga

TAQRIZ

Malakaviy ish mavzusi „O'zbekistonda XX asning 80-90 yillarida jamoaviy bolalar musiqasi“

Malakaviy ishning xajmi 80 bet.

a) yozma izox qismi 60 bet.

b) grafik qismi _____

Malakaviy ishning dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi Bitiruv malakaviy ishi bugungi kun musiqi pedagogikasining dolzarb muammolariga bag'ishlangan. Musiqi madaniyati darslarida o'qituvchilarning jamoaviy qo'niqlarini tashkil etish faolligini oshirish.

Malakaviy ishning yozma izox va grafik materiallarning tarkibi va bajarilishi sifati Bitiruv malakaviy ishi 80 bet hajmida bajarilgan bo'lib shundan 60 betida ishning asosiy yozma qismini berilgan. Kirishda ishning dolzarbligi asoslangan, maqsad va vazifalari belgilangan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajriba natijalaridan foydalanganligi Malakaviy ishda Prezidentimiz tomonidan ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan vazifalar ayniqsa musiqi ta'limini rivojlantirishda istiqbolli rejalari asos qilib olingan zamon egish texnologiyalari qo'llangan.

Malakaviy ishning ijobiy tomonlari Malakaviy ish tizimli asosda bajarilgan bo'lib unda ishning nazariy va amaliy asoslari o'rganilgan. Kuratish subbat, anketaga asosida xulosalar chiqarilgan.

Malakaviy ish bahosi (maksimal baho-100) 90 ball

Malakaviy ish rahbari: Murodov p.f.n dots M. Ismoilova
(familyasi, ismi, sharifi)

“ 8 ” may 2013 y.

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika - psixologiya fakulteti

5141000 - "Musiqiy ta'lim" ta'lim yo'nalishi
talaba Qulmurodova Gulnora Klashovna ning malakaviy
bitiruv ishiga

TAQRIZ

Malakaviy ish mavzusi Özbekistonda XX asrning 80-90 yillarida zamonaviy bolalar musiqasi

Malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va topshiriqqa mosligi Bitiruv mala-
kaviy ishi musiqa madaniyatining dolzarb muam-
malariga bag'irlangan bo'lib unda ta'lim jarayonida
oquvchilarning zamonaviy bolalar qo'shiqlarini
o'rganish faolligini oshirish bo'yicha vazifa va
topshiriqlar asosida bajarilgan.

Malakaviy ishning yozma izoh grafik materiallarning tarkibi va bajarilish
sifati Bitiruv malakaviy ishi 80 bet hajmida bja-
rilgan bo'lib shundan 60 sahifasida ishning
asosiy yozma bayoni berilgan. Kitobda ishning dol-
zarbligi asoslangan maqsad va vazifalari berilgan.
Tadqiqot qismi ushning natijalari 1-11 bo'limlarda bayon etilgan.
Malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajriba
natijalaridan foydalanganligi Bitiruv malakaviy ishida Preziden-
timiz tomonidan ta'lim-tarbiya oldiq qo'yilgan
vazifalar asos qilib olingan. Unda oquvchilarni zamon-
viy bolalar qo'shiqlarini o'rganish bo'yicha soha mutax u bo'y.
Malakaviy ishning ijobiy tomonlari Ishning ijobiy tomoni shu
bilan belgilandi ki unda tadqiqotchi musiqa ta'lim
jarayonida oquvchilarga zamonaviy bolalar qo'shiq-
larini o'qatishning o'ziga xos usul qatli tizimi
ni ishlab chiqqan.

Malakaviy ishining bahosi (maksimal 100-ball) va xulosa Malakaviy
bitiruv ishida berilgan muammo ijobiy yoritil-
gan. Unda qo'yilgan maqsadga erishilgan. Ishning tu-
zilishi va mazmuni dan kelib chiqqan holda 90 ball asosida bahol-
andi.

Taqrizchi: [imzo] (imzo)

Qarshi Pedagogika kolleji, o'qituvchi
lik kafedrasasi mudiri Qarayev J.

mansabi, ish joyi F.I.SH.
18.05.2013 yil.

